2020-yil 25-yanvardan chiqa boshlagan

YANGI O‘ZBEKISTON

Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 228 (1827), 2026-yil 4-noyabr, chorshanba

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz.uz_news

BUXORONING YANGI TARAQQIYOT FORMULASI — SANOAT, INVESTITSIYA VA MILLIY O‘ZLIK UYG‘UNLIGI

Prezidentimizning Buxoro viloyatiga tashrifi tafsilotlari va muhim tashabbuslar sharhi



Buxoro ishlov berilayotgan zumradga o‘xshaydi. Eng mohir zargarlargina bu nafis toshga mahorat bilan jilo berib, uni haqiqiy javohirga aylantiradi. O‘tmishda olisdan kelayotgan karvonlar ahli sharif shaharni ko‘rganida beixtiyor quvongan. Chunki bu qadimiy kent Qizilqum kengliklari aro qum bag‘ridagi yashil zumraddek ko‘ringan. Shu bois, uni hayot timsoli deyish ham mumkin. Yangi O‘zbekistondagi islohotlar sabab Buxoroning yangi qirralari ochilib, tarixiy haqiqatlar qayta tiklanmoqda...

Prezidentimiz 3-noyabr kuni bunyodkorlik ishlarining borishi va iqtisodiyotning turli tarmoqlarida amalga oshirilayotgan loyihalar bilan tanishish uchun Buxoro viloyatiga keldi.

Taomilga ko‘ra, tashrif Bahouddin Naqshband maqbarasi ziyorati bilan boshlandi. Islom olamining ulug‘ qadamjolaridan biri bo‘lgan majmua tarkibidan maqbara, xonaqoh, masjidlar, daxma va so‘fiylik tarixi muzeylari o‘rin olgan. So‘nggi yillarda majmuaning tarixiy qiyofasini asrash va ziyoratchilarga qulaylik yaratish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar qilindi. Jumladan, XV asr chizmalari asosida Doniyolbiy otaliq madrasasi va Toqi miyona darvozasi ta’mirlandi. Muzey ekspozitsiyasi hamda ilmiy-tadqiqot markazi tashkil etildi.

Ziyoratgohda Qur’oni karim oyatlaridan tilovat qilinib, yurtimizga tinchlik, farovonlik va qut-baraka tilab, duo qilindi. Ajdodlarimizning boy ma’naviy merosidan yoshlar tarbiyasida samarali foydalanish, ularni ilm-ma’rifatga undash zarurligi qayd etildi.

— Islom sivilizatsiyasi markazi, Imom Buxoriy va Imom Moturidiy bobolarimiz nomi bilan bog‘liq majmualar — bularning barchasi bir maqsadga xizmat qiladi: buyuk ajdodlarimiz ilmiy merosini davom ettirish va yoshlarimizni shu ruhda tarbiyalash, — dedi davlatimiz rahbari.

Bugun yangi imkoniyatlar, mamlakatimizdagi tub islohotlar tufayli Buxoro yana tarixiy maqomi va shuhratini tiklab, dunyo ahlini o‘ziga qaratmoqda. Endi u faqat turizm maskani emas, balki sanoatlashib borayotgan, iqtisodiy imkoniyatlar hududi hamdir. Ha, bugun sharif shaharga kelayotgan sayyohlar safida xorijning yirik ishbilarmonlari ham bor. Bunday yangilanishlar esa o‘z vaqtida yanada keng imkoniyatlarga yo‘l ochadi. Shu bilan birga, mamlakatimizda yirik xalqaro tadbirlar o‘tkazish uchun zamonaviy infratuzilmaga talabni o‘z-o‘zidan oshiradi. Buxoro shahrida barpo etilayotgan Kongress-xoll majmuasi va zamonaviy mehmonxonalar ana shu maqsadlarga xizmat qiladi. Mazkur majmuada oliy darajadagi uchrashuvlar va boshqa yirik anjumanlar o‘tkaziladi. Ayni jihat Buxoroning jozibadorligini yanada oshirib, boshlangan islohotlar izchilligiga puxta zamin hozirlaydi.

Hozir bu yerda qurilish ishlari qizg‘in davom etmoqda. Jumladan, qiymati 60 million dollar bo‘lgan loyiha doirasida maydoni 14,5 ming kvadrat metrli bino qurilyapti. Hozir asosiy betonlashtirish ishlari yakunlanib, tashqi muhandislik tarmoqlarini tortish hamda fasad, tom qismlari tiklanyapti. Bundan tashqari, shu hududda 37 million dollarlik “Hilton Garden Inn” mehmonxonasi ham qurilyapti. Yetti qavatli binoning asosiy konstruksiyasi qurib bitkazilgan. Hozir ichki devorlar, muhandislik tarmoqlari va fasad bilan bog‘liq ishlar bajarilmoqda.

Shu yerdagi yana bir loyiha “Holiday Inn” mehmonxonasi uchun 39,6 million dollar mablag‘ ajratilgan. U ham yetti qavatli binoda joylashadi. Mehmonxona yonida esa ikki qavatli biznes markazi barpo etilyapti. Mehmonxonada tom montaji va ichki devorlar qurilishi davom etmoqda, biznes markazi yerto‘lasida esa betonlashtirish jarayoni yakuniy bosqichda. Umuman, majmua Buxoroda sayyohlik xizmatlarini yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qilib, yirik iqtisodiy-ma’rifiy tadbirlar uchun keng imkoniyat ochadi.

Davlatimiz rahbari obyektlardagi ishlar bilan yaqindan tanishdi. Barpo etilayotgan inshootlar Buxoroda xalqaro tadbirlarni yuqori saviyada o‘tkazish, turizm xizmatlari ko‘lamini kengaytirish uchun muhimligi, bu esa aholi daromadini oshirish va hudud iqtisodiyotini yanada rivojlantirishga xizmat qilishini ta’kidladi.

Qurilish ishlarini belgilangan muddatda, sifat talablariga qat’iy rioya etgan holda yakunlash bo‘yicha topshiriqlar berildi.

Gap yurtimizning sayyohlik imkoniyati haqida ketar ekan, uni ham xuddi Buxoro kabi ishlov berilayotgan zumradga muqoyasa qilish mumkin. Qimmatbaho toshga qancha ishlov berilsa, qiymati shuncha ortadi. Faqat bu yo‘lda asliyatni asrash shartligini aslo unutmaslik zarur. Keyingi yillarda yurtimizda yangi turizm manzillari ochilib, imkoniyatlar kengaytirilyapti. 2025-yilda yurtimizga kelgan sayyohlar soni 2016-yildagiga nisbatan qariyb olti barobar oshgani bu imkoniyatlar ko‘lamidan darak berib turibdi. Shu davrda turizm xizmatlari eksporti o‘n bir karra ko‘paygan.

Mamlakatimiz yetakchisi tashrifning navbatdagi manzilida viloyatga sayyohlarni yanada keng jalb etish imkoniyatlarini ko‘rsatib o‘tdi. Xususan, Buxoro shahridagi Qo‘shmadrasa ansambli ana shunday imkoniyatni beradi.

Mazkur ansamblda ikkita me’moriy meros joylashgan. Ulardan biri Abdullaxon madrasasidir. XVI asr o‘zbek me’morchiligining nodir namunalaridan biri bo‘lgan madrasa 1588-1590-yillarda Buxoro xonligining shayboniylar sulolasidan chiqqan hukmdori, buyuk sarkarda va davlat arboblaridan biri Abdullaxon II tomonidan bunyod etilgan. Madrasa o‘z davrida Movarounnahrning eng yirik va nufuzli oliy ta’lim hamda ilm-fan markazlaridan biri bo‘lgan. Bu yerda tolibi ilmlarga diniy va dunyoviy fanlardan dars berilgan. Xususan, madrasada Qur’on, tafsir, hadis, fiqh, aqoid bilan bir qatorda arab tili va adabiyoti, mantiq, falsafa, matematika, geometriya, tibbiyot fanlari chuqur o‘qitilgan.

Madrasaning me’moriy rejasi va ichki tuzilishi murakkab muhandislik yechimi bilan boyitilgan. Ayni jihati tufayli u Buxorodagi boshqa madrasalardan farq qiladi. Majmuaning bosh kirish qismi janubga qaragan. U ko‘k rangli koshin va sirli naqshlardan terilgan geometrik mozaika bilan bezatilgan.

Ansamblning janubiy qismida esa Modarixon madrasasi joylashgan. Uni Abdullaxon II onasi sharafiga 1566-1567-yillarda bunyod ettirgan. Qo‘shmadrasa ansambliga hozir 1 million sayyoh kelmoqda. 2023-2024-yillarda qiymati 6 milliard so‘mlik loyiha doirasida qisman restavratsiya qilingan ansamblning salohiyatini yanada kengaytirish imkoni bor. Buning uchun majmuani zamon talablari asosida restavratsiya qilish zarur.

Davlatimiz rahbari shu yerda Qo‘shmadrasa ansamblini restavratsiya qilishga doir taqdimot bilan tanishdi. Sayyohlarga yanada qulay sharoit yaratish, restavratsiya jarayonida milliy va xalqaro tajribani keng qo‘llash zarurligi ta’kidlandi.

Zamonaviy dunyoda turizm iqtisodiyotning drayveridir. Buxoro esa dunyoda o‘xshashi yo‘q sayyohlik manzillaridan. Ayni paytda viloyatning iqtisodiy imkoniyatlari kengayib, ishlab chiqarish quvvati oshib boryapti. Bularning barchasidan oqilona foydalanishni davrning o‘zi talab etmoqda.

Buxoro shahrida qurilayotgan yangi turizm markazi shu ma’noda tarixiy ahamiyatga ega yirik loyiha. U shunchaki sayyohlik maskani emas, balki xalqimizning o‘zligini namoyon etuvchi muhtasham inshootdir. Masalan, hozir sayyohlar bu yerga qadimiy Buxoroning tarixiy obidalari bilan birga hunarmandchilik va gastronomiya an’analariga qiziqishi sabab ham kelmoqda. Yangi markaz shunday boy merosni zamonaviy xizmatlar bilan uyg‘unlashtiradi.

Bir paytlar Buyuk ipak yo‘li chorrahasida joylashgani bois ham Buxoroda savdo-sotiq doim baravj bo‘lgan. Hunarmandchilik rivojlangan shaharda ilm-ma’rifat yetakchilari yashagan. Mazkur jihatlar sabab qadim va sharif shaharda dunyo ilm-fanining dolzarb masalalari muhokama qilinib, muhim iqtisodiy kelishuvlar tuzilgan. Ayni paytda xalqimizning boy madaniy merosi, madaniyati karvonlarga qo‘shilib dunyoga tarqalgan.

Maydoni 50 gektarli yangi turizm markazi zamonaviy Buxoroning tarixiy ildizlarini qayta tiklashga xizmat qiladi. Buning uchun loyihaga jami 105 million dollar investitsiya yo‘naltirilishi rejalashtirilgan. Shu orqali majmuada yirik xalqaro madaniy va ishbilarmonlik tadbirlari o‘tkazish uchun sharoit yaratiladi.

Jumladan, hududda qabullar uyi, ko‘rgazmalar zali, muzey, ikkita zamonaviy mehmonxona, 80 ta oilaviy mehmon uyi, 2000 o‘rinli amfiteatr, 70 dan ortiq savdo va xizmat ko‘rsatish shoxobchasi barpo etiladi. Shuningdek, sayilgohlar, hunarmandchilik markazlari va sun’iy ko‘l tashkil etiladi. Inshootlar qiyofasida Buxoro me’morchiligiga xos an’analarni zamonaviy yechimlar bilan uyg‘unlashtirish nazarda tutilgan.

Prezidentimiz joriy yil yanvarda Buxoro shahrining bosh rejasi muhokamasida madaniyat loyihalarini turizmni rivojlantirish bilan bog‘liq holda amalga oshirish, ularning iqtisodiy barqarorligi va sifatli boshqaruvini ta’minlash zarurligini ta’kidlagan edi. Mazkur markaz ham mehmonlar uchun turli xizmatlarni bir hududda jamlashga qaratilgan.

Hozir markazning 10 gektar maydonida muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlarini tortish ishlari bajarilmoqda. Mazkur jarayonga 50 ga yaqin maxsus texnika jalb qilingan. Majmua to‘liq ishga tushirilgach, 2000 ta ish o‘rni ochiladi. Qolaversa, Buxoroga qo‘shimcha 2 milliondan ortiq sayyoh jalb etish mumkin.

Prezidentimiz loyihaning ahamiyati bunyod etilayotgan binolar bilan belgilanmasligi, asrlar davomida ilm-ma’rifat, savdo va hunarmandchilik markazi bo‘lib kelgan Buxoroning shuhratiga munosib muhit yaratish, uning boy merosini dunyoga yanada keng tanitish muhimligini qayd etdi. Yangi markazga kelgan mehmon sharif shaharning tarixiy ruhini his etishi, bugungi taraqqiyotini ko‘rishi, buxoroliklar esa turizm rivojidan ish o‘rni topishi va daromad ko‘rishi lozim. Davlatimiz rahbari loyihani ana shu maqsadlardan kelib chiqib amalga oshirish vazifasini qo‘ydi.

Davomi 2-betda

TURKIY DUNYO: TARIXIY YAQINLIKDAN STRATEGIK SHERIKLIK SARI

Asrlar davomida bir yo‘ldan yurgan, bir bozorda savdo qilgan, bir-birining quvonchu tashvishlariga sherik bo‘lgan turkiy xalqlarni bugun yanada yaqinlashtirayotgan omillar ko‘p. Biroq zamon endi bu yaqinlikka boshqacha mazmun yuklamoqda. Endi gap faqat mushtarak tarix va madaniyat emas, balki umumiy bozor, yagona iqtisodiy manfaat va xalqaro maydonda birgalikda raqobatlasha olish salohiyati haqida bormoqda.

Nuqtayi nazar

Turkiy davlatlar tashkilotining Anqarada “Turkiy asr: tilda, fikrda va ishda birlik” shiori ostida o‘tgan sammiti aynan shu jihati bilan ahamiyatli bo‘ldi. Prezidentimiz ilgari surgan tashabbuslar turkiy birdamlikni amaliy iqtisodiy natijalar bilan boyitishga qaratilgani bilan e’tiborga molik. Zero, bugungi dunyoda tarixiy yaqinlikning o‘zi kamlik qiladi. Uni savdo, sanoat, investitsiya, transport va texnologiya sohalaridagi hamkorlik bilan mustahkamlash zarur.

Tashabbuslar haqida fikr yuritishdan oldin bir oz ortga nazar tashlasak. Turkiy davlatlar yaqinlashuvi ancha oldin boshlangan. Jumladan, 2009-yilda Naxichevan bitimi asosida Turkiy tilli davlatlar hamkorlik kengashiga asos solingan. Ammo yaqin yillargacha til, din va madaniy birlikdan tashqari bu davlatlarning iqtisodiy hamkorligi kengayishi kechikkani bir oz chuqurroq mulohazaga undaydi.

Birgina Markaziy Osiyo misolida ko‘rsak. Yaqin yillargacha mintaqa rivojiga to‘siq bo‘lgan omillardan biri davlatlar o‘rtasidagi o‘zaro anglashilmovchilik, siyosiy qarashlar bilan birga sobiq ittifoqdan “meros” qolgan chegara masalasi edi.

Davomi 4-betda

O‘ZLIKNI ANGLASHGA QARATILGAN IQTISODIY-IJTIMOIY JARAYONLAR SHIDDATI

Yakuniga yetgan oktabr oyi mamlakatimiz hayotida tashqi siyosiy muloqot, investitsiyalarni jalb qilish, iqtisodiy hamkorlikni kengaytirish hamda ijtimoiy sohalarni rivojlantirish kabi masalalar muhim o‘rin egallagani bilan yodda qoldi. Jarayon tahlili bu davrda xalqaro aloqalar bilan bir qatorda tibbiyot, energetika, ta’lim va milliy madaniyatga ham alohida e’tibor qaratilganini ko‘rsatdi.



Tashqi siyosat: mintaqaviy hamkorlik va xalqaro muloqot

Oktyabrning birinchi yarmida davlatimiz rahbarining tashqi siyosiy faoliyati Markaziy Osiyo davlatlari bilan hamkorlikni mustahkamlash va xalqaro muloqotda O‘zbekistonning ishtirokini kengaytirish yo‘nalishiga qaratildi. Xususan, **7-9 oktabr** kunlari Shavkat Mirziyoyev amaliy tashrif bilan Turkmanistonda bo‘lib, Markaziy Osiyo va Ozarbayjon davlat rahbarlarining sakkizinchi Maslahat uchrashuvi hamda Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi sammitida ishtirok etdi. Ushbu tadbirlar mintaqaviy savdo, energetika, atrof-muhitni muhofaza qilish, ta’lim va xavfsizlik kabi masalalarni muhokama qilish uchun muhim maydon bo‘ldi.

Davlatimiz rahbari **8-oktabr** kuni “Avaza” milliy sayyohlik zonasida Markaziy Osiyo va Ozarbayjon davlat rahbarlarining sakkizinchi Maslahat uchrashuvida sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish, transport bog‘liqligini mustahkamlash va yangi texnologiyalarni joriy etish, energetika, suv resurslari va ekologiya masalalarini birgalikda hal qilish bo‘yicha takliflarni ilgari surdi. Uchrashuv yakunida qo‘shma bayonot qabul qilindi va ko‘p tomonlama hujjatlar imzolandi.

Davomi 3-betda

Prezidentimiz modernizatsiya ishlarini belgilangan muddatlarda va yuqori sifat bilan bajarish, yangi qurilmalarni mavjud ishlab chiqarish jarayonlariga uyg‘un holda joriy etish hamda korxonaning barqaror faoliyatini ta’minlash yuzasidan ko‘rsatmalar berdi.

YANGI O‘ZBEKISTON

2026-yil 4-noyabr, 228-son

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz.uz_news

BUXORONING YANGI TARAQQIYOT FORMULASI — SANOAT, INVESTITSIYA VA MILLIY O‘ZLIK UYG‘UNLIGI

Boshlanishi 1-betda

O‘zbekistonning dunyoga ochilishi mamlakatimiz iqtisodiyotida katta sakrashga sabab bo‘ldi. Birinchidan, tadbirkorlarimiz bemalol xorij bozoriga chiqib, milliy brendlarimizni xalqaro darajada tanitmoqda. Qolaversa, chet ellik sarmoyadorlar yurtimizdagi iqtisodiy jozibador loyihalarda bemalol ishtirok etish imkoniga ega bo‘ldi. Yil sayin ular safi kengayib, ishonchi mustahkamlanib bormoqda. Vyetnamning “ROX Group” kompaniyasi ham ana shunday sarmoyadorlardan.

Prezidentimiz Buxoroga tashrifi chog‘ida mazkur kompaniya tomonidan mamlakatimizda amalga oshirilishi rejalashtirilgan loyihalar taqdimoti bilan tanishdi. Unda kompaniya vakillari Buxoroda ikkita, Toshkent shahrining



Uchtepa tumani va Samarqandda bittadan — jami to‘rtta shaharsozlik loyihasi haqida axborot berdi. Ularning umumiy maydoni 285 gektarni, investitsiya hajmi 4,5 milliard dollarni tashkil etadi. Loyihalar 115 ming kishi uchun mo‘ljallangan.

Jumladan, Buxoro tumanida 65 gektar, Buxoro shahrida esa 25 gektar maydonda yangi turar joy massivlari qurilishi boshlandi. Ularda 30 ming kishiga mo‘ljallangan ko‘p qavatli uy-joylar, mehmonxonalar, biznes markazlari, savdo, xizmat ko‘rsatish va ko‘ngilochar obyektlar barpo etish ko‘zda tutilgan.

Uchtepa tumanidagi loyiha zamonaviy shahar muhitini yaratish, Samarqanddagi tashabbus sayyohlik majmuasi atrofidagi infratuzilmani kengaytirishga qaratilgan. Vyetnamlik investor Jizzax viloyatining Zomin tumanida sanoat zonasi tashkil etish tashabbusini ham ilgari surdi.

Prezidentimiz taqdim etilgan konsepsiyalarni ma’qullab, loyihalarda ilg‘or shaharsozlik yechimlarini qo‘llash zarurligini ko‘rsatib o‘tdi. Mutasaddilarga loyihalar uchun zarur infratuzilma va amalga oshirish mexanizmlarini kompaniya bilan birgalikda puxta ishlab chiqish yuzasidan ko‘rsatmalar berildi.

Tashrif doirasidagi navbatdagi manzilda O‘zbekiston yetakchisi “Bugungi Buxoro buyuk tarixdan yangi taraqqiyot va muhtasham loyihalar davriga shiddat bilan yuzlanmoqda”, deya ta’kidladi.

Bu bejiz emas, albatta. Chunki keyingi yillarda viloyatning iqtisodiy ko‘rsatkichlari keskin oshdi. Buning zamirida tinimsiz mehnat va izlanishlar, xorijlik sarmoyadorlarga yaratilgan imkoniyat, mahalliy tadbirkorlarni qo‘llab-quvvatlash borasidagi ishlar samarasi yotibdi. Viloyatda bunday ishlar izchil davom etmoqda. Xususan, tashrif chog‘ida Prezidentimiz yangi obyektlarni ishga tushirish va istiqbolli loyihalar qurilishiga start berish marosimida ham ishtirok etdi.

Davlatimiz rahbari so‘nggi to‘qqiz yilda viloyatga 9,5 milliard dollarlik xorijiy investitsiya jalb qilinib, 6000 dan ortiq yangi ishlab chiqarish quvvati va 120 mingta doimiy ish o‘rni ochilganini qayd etdi. Natijada xalqimiz turmush tarzi yaxshilanib boryapti. Ishsizlik kamayib, kambag‘allik qisqarmoqda. Buni Buxoroning markazidan to olis manzillarigacha bo‘lgan hududlarni kezib, odamlar bilan suhbatlashganlar tasdiqlaydi.

Marosimda esa xalqimiz farovonligini yanada oshirib, iqtisodiy quvvat, ijtimoiy birdamlik beradigan loyihalar taqdimoti o‘tkazildi. Jumladan, neft-kimyo, to‘qimachilik, qurilish materiallari, mashinasozlik, energetika, tog‘-kon sanoati, farmatsevtika, raqamli texnologiyalar, logistika, qishloq xo‘jaligi, oziq-ovqat, uy-joy qurilishi, infratuzilma, xizmat ko‘rsatish va turizm sohalarida umumiy qiymati 7,8 milliard dollar bo‘lgan 145 ta loyihadan iborat dastur shakllantirilgan. Shundan 654 million dollarlik 55 ta loyiha ishga tushirilmoqda, qiymati 7,1 milliard dollar bo‘lgan yana 90 tasining qurilishi boshlanmoqda.

Ahamiyatlisi, mazkur loyihalarga rivojlangan mamlakatlardan yirik ishbilarmonlar sarmoya kiritmoqda. AQSH, Kanada, Germaniya, Yaponiya, Janubiy Koreya, Singapur, Xitoy, Vyetnam, Turkiya, Birlashgan Arab Amirliklari, Saudiya Arabistoni, Rossiya va Hindiston investorlari shular jumlasidan. Shuningdek, loyihalarda Osiyo taraqqiyot banki, Osiyo infratuzilma investitsiyalari banki hamda mahalliy tadbirkorlar ishtirok etmoqda.

> **Davlatimiz rahbari so‘nggi to‘qqiz yilda viloyatga 9,5 milliard dollarlik xorijiy investitsiya jalb qilinib, 6000 dan ortiq yangi ishlab chiqarish quvvati va 120 mingta doimiy ish o‘rni ochilganini qayd etdi. Natijada xalqimiz turmush tarzi yaxshilanib boryapti. Ishsizlik kamayib, kambag‘allik qisqarmoqda.**

Loyihalar amalga oshirilishi natijasida 14 mingdan ortiq ish o‘rni ochiladi. Yiliga 22 trillion so‘mlik mahsulot ishlab chiqarilib, 510 million dollarlik eksport imkoniyati paydo bo‘lishi kutilmoqda.

— Maqsadimiz bitta — import o‘rnini bosadigan va tashqi bozorlarda talab yuqori bo‘lgan mahsulotlar ishlab chiqarish, — dedi davlatimiz rahbari.

Buxoro keyingi yillarda mamlakatimizning yirik energetika markazlaridan biriga aylanib bormoqda. Xususan, “yashil” energetikaga 2 milliard dollar jalb qilinib, ming megavattli shamol va 750 megavattli quyosh elektr stansiyalari, shuningdek, 63 megavattli energiya saqlash tizimlari ishga tushirildi. 601 kilometr magistral elektr tarmog‘i tortildi.

G‘ijduvonda “ACWA” kompaniyasi bilan 300 megavattli “Bosh-2” shamol elektr stansiyasi, Jondorda “Toyota Corporation” va Peshkuda “Sinoma” kompaniyalari ishtirokida umumiy quvvati ming megavatt bo‘lgan shamol elektr stansiyalari qurilishi davom etmoqda.

Xitoylik hamkorlar bilan Kogon tumanida maishiy chiqindilardan elektr energiyasi olish loyihasi amalga oshirilmoqda. Umumiy qiymati 165 million dollar bo‘lgan loyiha asosida ishlab chiqariladigan energiyaga ishlab chiqarishni kengaytirish niyatida bo‘lgan tadbirkorlar hozirdanoq xaridor bo‘lishini ma’lum qilgan.

— Qadimiy obidalar, madaniy meros va zamonaviy infratuzilma uyg‘unligi Buxoroni sayyohlarning sevimli maskaniga aylantiryapti. Bugungi tadbirimiz o‘tayotgan, yangidan barpo etilayotgan Buxoro turizm markazi ana shu ezgu maqsadga xizmat qiladi, — dedi davlatimiz rahbari.

Markazda “Boqiy Buxoro” madaniy-etnografik parki, ko‘rgazmalar zali, zamonaviy mehmonxonalar, madaniy va ko‘ngilochar maskanlar barpo etiladi. Shuningdek, Buxoro shahrida “Indigo”, “Holiday Inn” va “Hilton” xalqaro brendlari ostida mehmonxonalar tashkil etish rejalashtirilgan.

— Umuman, Buxoroda qiymati 3 milliard dollarlik 19 ta yirik loyihani boshlaymiz. Agar bu ishlarni tizimli tashkil qilsak, birgina Buxoroning o‘zida bemalol 5 milliard dollarlik turizm xizmatlari eksportini ta’minlaymiz, — dedi Prezidentimiz.

Shuningdek, viloyatning tranzit salohiyatini uch karra oshirishga qaratilgan, qiymati 565 million dollar bo‘lgan yettita yo‘l loyihasi amalga oshiriladi.

Prezidentimiz ramziy tugmani bosib, yangi obyektlarni ishga tushirdi va istiqbolli loyihalar qurilishiga start berdi. Xorijlik investorlar bilan muloqot qildi.

Shu yerning o‘zida davlatimiz rahbari Buxoro shahrida tashkil etilishi rejalashtirilgan yirik xalqaro tadbirlarga tayyorgarlik masalalari bo‘yicha yig‘ilish o‘tkazdi. Unda bo‘lajak tadbirlar Buxoroning boy tarixiy merosi va bugungi salohiyatini namoyon etish bilan birga viloyatni rivojlantirishga xizmat qilishi kerakligi ta’kidlandi. Buning uchun tayyorgarlikni tadbirlar o‘tadigan joylar bilan cheklamay, transport, xizmat ko‘rsatish, xavfsizlik va shahar infratuzilmasini yaxlit holda rivojlantirish zarur.

Yig‘ilishda oliy darajadagi uchrashuvlar va yirik xalqaro tadbirlarni yuqori saviyada tashkil etish masalalari ko‘rib chiqildi. Har bir vazirlik va idoraga xorijlik hamkorlar bilan o‘z yo‘nalishi bo‘yicha mazmunli muloqotga tayyorgarlik ko‘rish, mamlakatimizdagi islohotlarning amaliy natijalarini ko‘rsatish va yangi qo‘shma tashabbuslar ishlab chiqish vazifasi yuklandi.

Jamoat xavfsizligini ta’minlashga alohida e’tibor qaratildi. Buxoroda zamonaviy vaziyat markazlari faoliyatini yo‘lga qo‘yish, jamoat joylari va sayyohlik obyektlaridagi holatni raqamli texnologiyalar yordamida kuzatish, yo‘l harakatini boshqarish hamda kiberjinoyatchilikka qarshi kurashish bo‘yicha rejalar muhokama qilindi. Mahallalarda huquqbuzarliklarning oldini olishda profilaktika inspektorlari va “mahalla yettiligi” hamkorligini kuchaytirish zarurligi qayd etildi.

Shuningdek, Buxoroning iqlim sharoitini hisobga olib yashil hududlarni kengaytirish, daraxt va butalar ekish bilan birga ularning parvarishi uchun sug‘orish hamda drenaj tizimlarini tashkil etish masalalariga ham e’tibor qaratildi.

Xalqaro tadbirlardan investitsiya va iqtisodiy hamkorlikni kengaytirish uchun foydalanish zarurligi ta’kidlandi. Sanoat kooperatsiyasi, yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarish, transport-logistika va eksport sohalarida xorijiy sheriklar bilan amaliy kelishuvlarga erishish bo‘yicha takliflar ko‘rib chiqildi. Shuningdek, viloyatda qayta tiklanuvchi energetika loyihalari, elektr energiyasini uzatish va saqlash infratuzilmasini rivojlantirish ishlari muhokama qilindi. Mehmonlarni viloyatdagi keng imkoniyatlar va izchil davom etayotgan islohotlar ko‘lami bilan tanishtirishga ham to‘xtalib o‘tildi.

Davlatimiz rahbari tayyorgarlik jarayonida quriladigan har bir obyekt va joriy etiladigan har bir tizim tadbirlardan keyin ham buxoroliklarga xizmat qilishi lozimligini ta’kidladi. Mutasaddilarga hududlarga chiqib, ishlarning borishini shaxsan o‘rganish, muammolarni joyida hal etish va barcha vazifalar ijrosini qat’iy muvofiqlashtirish bo‘yicha ko‘rsatmalar berildi.

Prezidentimizning Buxoro viloyatiga tashrifi tig‘iz ish rejimi asosida qizg‘in kechdi. Yurt farovonligi, xalq roziligi yo‘lidagi bunday mehnatlar esa mamlakatimiz taraqqiyotida muhim o‘rin tutmoqda. Jumladan, bir necha yil oldin cho‘l, tashlandiq joy bo‘lgan hududlar ham iqtisodiyotimizning muhim bo‘g‘iniga aylanyapti. Buxoro tumanidagi “Tekhnochem” korxonasi ham fikrimiz dalilidir.



Davlatimiz rahbari viloyatga tashrifi chog‘ida mazkur korxonada bo‘lib, neft-kimyo klasterining faoliyati va istiqbolli rejalari bilan tanishdi. Mazkur klaster neft va gaz kondensati, nafta, metanol hamda piroliz distillyatini qayta ishlashga ixtisoslashgan. Ushbu yo‘nalishdagi majmua respublikada yagonadir.

Yiliga 100 ming tonna piroliz distillyati, shuningdek, 160 ming tonna nafta va gaz kondensatini qayta ishlash quvvatiga ega korxonada 500 ga yaqin kishi mehnat qilmoqda. Loyiha yonilg‘i bilan bir qatorda kimyo sanoati uchun zarur mahsulotlar olish imkonini beradi. Jumladan, oktanbuster benzin sifatini oshirish, eritkichlar esa bo‘yoq, lok, yelim va maishiy kimyo mahsulotlari ishlab chiqarishda qo‘llanadi.

Prezidentimizga klasterni kengaytirishning navbatdagi bosqichi to‘g‘risida axborot berildi. Jumladan, 2028-yil yakunigacha 292 million dollarlik investitsiya loyihasi amalga oshiriladi. Natijada gaz kondensati va naftani qayta ishlash, aromatik uglevodorodlar hamda eritkichlar ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yiladi. Buning evaziga yillik qayta ishlash quvvati qo‘shimcha 400 ming tonnaga oshishi va 700 ta yangi ish o‘rni ochilishi kutilmoqda. Yangi quvvatlar ishga tushishi bilan texnologlar, muhandislar, kimyogarlar va laboratoriya mutaxassislariga ehtiyoj ham ortadi. Davlatimiz rahbari shu munosabat bilan hududda kasbiy ta’lim va ishlab chiqarish o‘rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash zarurligiga e’tibor qaratdi.

Korxona tomonidan Markaziy Osiyo davlatlari, qo‘shni Afg‘oniston va Yevropa Ittifoqi mamlakatlariga yiliga 180 ming tonnaga yaqin neft-kimyo mahsulotlari, avtobenzin va dizel yonilg‘isini eksport qilish rejalashtirilgan. Shuningdek,



2028-2030-yillarda 150 ming tonna suyultirilgan gazni qayta ishlash loyihasi yuzasidan xorijiy hamkorlar bilan muzokaralar olib borilmoqda. Davlatimiz rahbari klasterning eksport salohiyatini oshirish va yangi quvvatlar uchun malakali kadrlar tayyorlash bo‘yicha tavsiyalar berdi.

Prezidentimiz tashrifining navbatdagi manzili Buxoro neftni qayta ishlash zavodi bo‘ldi. Bu yerda zavodni modernizatsiya qilish loyihasi bilan tanishildi.

Buxoro neftni qayta ishlash zavodi 1997-yilda Fransiyaning ilg‘or “Aksens” texnologiyasi asosida “Teknip” kompaniyasi tomonidan barpo etilgan. Chorak asrdan buyon respublikaning asosiy yonilg‘i bazalaridan biri sifatida samarali faoliyat yuritib kelmoqda. Jumladan, 3200 dan ziyod mahalliy mutaxassis mehnat qilayotgan korxonada joriy yilning to‘qqiz oyida 12,1 trillion so‘mlik 1,36 million tonna neft mahsulotlari ishlab chiqarildi. Afg‘oniston va Tojikiston kabi qo‘shni davlatlarga 99,5 million dollarlik mahsulot va xizmatlar eksport qilindi. Yil yakunigacha bu ko‘rsatkichni 116 million dollarga yetkazish rejalashtirilgan. O‘z navbatida, zavod ichki ehtiyojlarni qoplash, eksport imkoniyatlarini kengaytirish bilan bir qatorda, davlat byudjetiga 838,1 milliard so‘mlik tushumni ta’minlayotir.

Bugun bu yerda qilinayotgan bunyodkorlik ishlari alohida e’tiborga loyiq. Binobarin, uglevodorod xomashyosini chuqur qayta ishlashga qaratilgan modernizatsiya loyihasining ahamiyati texnik yangilanishdan ancha keng. U O‘zbekistonning energetika mustaqilligi va eksport salohiyatini yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qiluvchi strategik loyihadir.

Birinchidan, keyingi yillarda O‘zbekiston sanoati xomashyo eksport qilish modelidan voz kechib, xomashyoni chuqur qayta ishlashni kengaytirish hisobiga yuqori qo‘shilgan qiymatli tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish bosqichiga faol o‘tmoqda. Yuqori texnologiyaga asoslangan ushbu jarayonda mavjud ichki imkoniyat va resurslardan samarali foydalanishga alohida e’tibor qaratilayotir. Natijada ayni paytga kelib jami sanoat mahsulotlarining 85 foizdan ortig‘i aynan qayta ishlash tarmoqlari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda. Loyiha ushbu maqsad yo‘lidagi ishlarning mantiqiy davomi sifatida xomashyoni chuqur qayta ishlashni kengaytirishga zamin yaratadi.

Ikkinchidan, bugun global energetika bozorida mahsulot sifati va ekologik standartlarga talab har qachongidan ham yuqori. Garchi zavod bugun ham neft hamda gaz kondensatini qayta ishlovchi yirik sanoat korxonalaridan biri bo‘lsa-da, yangi O‘zbekiston sanoatidagi yangilanishlar Buxoro NQIZni zamon talablariga mos modernizatsiya qilish zaruratini yuzaga keltirdi.

Qiymati 328 million dollarlik yangi modernizatsiya loyihasi doirasida zavodda eng zamonaviy naftani gidrotozalash va izomerizatsiya qilish qurilmalari o‘rnatiladi. Ushbu texnologik yangilikning asosiy ikki strategik ahamiyati bor.

Birinchisi, jahon bozorida raqobatbardosh va ekologik zarari minimal bo‘lgan yuqori oktanli AI-92 va AI-95 markali avtobenzinlarni to‘liq Euro-5 standarti asosida ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yiladi. Bu atmosferaga tashlanadigan zararli gazlar miqdorini keskin kamaytirish va yirik shaharlardagi ekologik vaziyatni yaxshilashga xizmat qiladi.

Ikkinchisi, xomashyoni dastlabki bosqichda fraksiyalarga ajratishdan boshlab, og‘ir qoldiqlarni chuqur qayta ishlash tizimi joriy etilishi hisobiga ishlab chiqarish quvvati ikki baravar oshadi. Ya’ni yiliga qo‘shimcha 2,5 million tonna neftni qayta ishlash quvvati yaratilib, zavodning umumiy yillik quvvati 5 million tonnaga yetkaziladi. Ishlab chiqarish hajmining ikki baravar ko‘payishi, o‘z navbatida, ichki bozorda yonilg‘i taqchilligi xavfini bartaraf etadi. Euro-5 standartiga o‘tilishi esa mahalliy mahsulotlarning tashqi bozorlardagi geosiyosiy va iqtisodiy ustunligini ta’minlaydi. Sanoatning “yashil iqtisodiyot” tamoyillari asosida rivojlanishi mamlakatimizning barqaror kelajagini kafolatlaydi.

Shu tariqa zavod faoliyati sifat va hajm jihatidan mutlaqo yangi bosqichga o‘tadi. Asosiysi, yangi modernizatsiya loyihasining moliyaviy ta’minoti sog‘lom iqtisodiy yondashuvga asoslangan: umumiy qiymatning 49 million dollari zavodning o‘z mablag‘lari, qolgan 279 million dollari esa xorijiy kreditlar hisobidan qoplanadi.

Prezidentimiz modernizatsiya ishlarini belgilangan muddatlarda va yuqori sifat bilan bajarish, yangi qurilmalarni mavjud ishlab chiqarish jarayonlariga uyg‘un holda joriy etish hamda korxonaning barqaror faoliyatini ta’minlash yuzasidan ko‘rsatmalar berdi. Shu yerda loyihada ishtirok etayotgan xorijiy kompaniyalar vakillari bilan muloqot bo‘lib o‘tdi.

Boboravshan G‘OZIDDINOV,
Avazbek XUDOYQULOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbirlari

YANGI O‘ZBEKISTON

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz.uz_news

Oy davomida ilgari surilgan tashabbus va rejalarning ahamiyati ularning amaliy ijrosi, aholi turmush sifatiga ta’siri, iqtisodiy samaradorligi va jamiyatdagi ijtimoiy o‘zgarishlarda namoyon bo‘lishi bilan belgilanadi.

DAVR NAFASI

2026-yil 4-noyabr, 228-son

O‘ZLIKNI ANGLASHGA QARATILGAN IQTISODIY-IJTIMOIY JARAYONLAR SHIDDATI



Nodir MAHMUDOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Boshlanishi 1-betda

Sammit doirasida Turkmaniston Prezidenti Serdar Berdimuhamedov bilan muzokaralar o‘tkazildi. Oliy darajadagi strategik sheriklik kengashini tashkil etish to‘g‘risidagi bitim imzolangani muzokaralarning muhim natijasi bo‘ldi.

9-oktabr kuni Prezidentimiz MDH davlat rahbarlari kengashi majlisida ishtirok etdi hamda savdo va sanoat hamkorligini kengaytirish, transport aloqalarini rivojlantirish, oziq-ovqat va energetika xavfsizligini mustahkamlash, shuningdek, kiberjinoyatchilikka qarshi kurashish bo‘yicha takliflarni ilgari surdi. Mamlakatimiz yetakchisi sammitning kengaytirilgan majlisida O‘zbekistonning 2027-yildagi MDHga raisligining ustuvor yo‘nalishlarini bayon qildi. Sammit yakunida hujjatlar to‘plami imzolandi.

Prezidentimizning **14-15-oktabr** kunlari Ozarbayjonning Boku shahrida Osiyoda hamkorlik va ishonch choralari bo‘yicha kengashning yettinchi sammitida ishtirok etgani O‘zbekiston tashqi siyosatining navbatdagi muhim yo‘nalishi bo‘ldi. Davlatimiz rahbari Osiyoda ishonch infratuzilmasini shakllantirish konsepsiyasini ishlab chiqishni taklif etdi. Texnologik ishonch va sun’iy intellektdan mas’uliyat bilan foydalanish bo‘yicha Osiyo tashabbusini ilgari surdi hamda iqlim barqarorligi sohasida hamkorlikni yo‘lga qo‘yish muhimligini ta’kidladi.

Sammit doirasida Qatar Davlati Amiri Shayx Tamim bin Hamad Ol Soniy, Laos Xalq Demokratik Respublikasi Prezidenti Txonglun Sisulit, Kambodja Qirolligi Bosh vaziri Xun Manet va Vyetnam Sotsialistik Respublikasi vitse-prezidenti Vo Txi An Suan bilan alohida uchrashuvlar bo‘lib o‘tdi.

Bunday uchrashuvlarning ahamiyati diplomatik aloqalar bilan cheklanmaydi. Mintaqaviy kelishuvlar savdo yo‘llarini rivojlantirish, transport xarajatini kamaytirish, energetika sohasidagi aloqalarni mustahkamlash va suv resurslaridan oqilona foydalanish uchun imkoniyat yaratishi mumkin. Biroq bu imkoniyatlarning haqiqiy samarasi kelishuvlarning bajarilishi va iqtisodiy natijasi bilan baholanadi.

O‘zbekistonning yirik xalqaro iqtisodiy sheriklar bilan munosabatlari ham oktabr oyida kun tartibining muhim qismi bo‘ldi. **19-oktabr** kuni Prezidentimiz AQSH Davlat kotibi Marko Rubioni qabul qildi. Shu kuni O‘zbekiston — AQSH iqtisodiy hamkorligining yangi ustuvor yo‘nalishlari belgilandi. Strategik sheriklikni rivojlantirish va iqtisodiy hamkorlikni kengaytirish masalalariga e’tibor qaratildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Amerika Qo‘shma Shtatlari Davlat kotibi Marko Rubio hamda AQSH Prezidentining Janubiy va Markaziy Osiyo bo‘yicha maxsus vakili Serjio Gorni davlat mukofotlari bilan taqdirladi.

Marko Rubio “Buyuk xizmatlari uchun” ordeni bilan mukofotlandi. Uning O‘zbekiston va AQSH o‘rtasidagi strategik sheriklikni rivojlantirish, siyosiy-diplomatik, savdo-iqtisodiy va madaniy-gumanitar aloqalarni kengaytirish, Markaziy Osiyoda tinchlik, barqarorlik va izchil taraqqiyotni ta’minlashga qaratilgan sa’y-harakatlarni qo‘llab-quvvatlashga qo‘shgan ulkan shaxsiy hissasi e’tirof etildi.

Serjio Gor esa O‘zbekiston va AQSH o‘rtasidagi do‘stona munosabatlarni mustahkamlash hamda strategik sheriklikni kengaytirishga qo‘shgan hissasi uchun “Do‘stlik” ordeni bilan taqdirlandi. Uning siyosiy muloqotni faollashtirish, ikki tomonlama kelishuvlarni amalga oshirish, amerikalik sarmoyadorlarni jalb etish va qo‘shma loyihalarni ilgari surish borasidagi sa’y-harakatlari e’tirof etildi.

Mamlakatimiz yetakchisi Amerika — O‘zbekiston ishbilarmonlik va investitsiya kengashining ikkinchi yig‘ilishi ochilishida ishtirok etdi. Tadbirda AQSH Davlat kotibi Marko Rubio, AQSH Prezidentining maxsus vakili Serjio Gor, Amerikaning yetakchi kompaniyalari va banklari vakillari ham qatnashdi.

Davlatimiz rahbari O‘zbekistondagi keng ko‘lamli islohotlarga to‘xtalib o‘tdi. Sanoatni yanada rivojlantirish va zamonaviy infratuzilmani barpo etish uchun investitsiyalar jalb qilish jarayoni ilg‘or texnologiyalarni joriy etish, bilim va tajriba almashish bilan birga olib borilishi zarurligi ta’kidlandi.

Bu borada AQSH biznesi bilan hamkorlik qilish bo‘yicha katta tajriba to‘plangani ta’kidlandi. Bugun O‘zbekistonda Amerika sarmoyasi ishtirokidagi yuzlab kompaniyalar faoliyat yuritmoqda. Ular bilan sanoat, energetika, transport, qishloq xo‘jaligi, ta’lim va yangi texnologiyalar sohalarida hamkorlik yo‘lga qo‘yilgan. Ayni paytda O‘zbekiston kompaniyalari ham AQSH iqtisodiyotiga investitsiya kirita boshlayotgani mamnuniyat bilan e’tirof etildi.

O‘zbekiston Prezidenti **29-30-oktabr** kunlari amaliy tashrif bilan Turkiyada bo‘lib, Anqara shahrida o‘tkazilgan Turkiy davlatlar tashkiloti (TDT)ning 13-sammitida ishtirok etdi hamda qator ikki tomonlama uchrashuvlar o‘tkazdi.

Hamkorlikni mustahkamlash, savdo, transport aloqalari va energetikani rivojlantirish hamda mintaqaviy o‘zaro hamkorlikni kengaytirish sammitning asosiy mavzulari bo‘ldi.

Mamlakatimiz yetakchisi yuzta strategik qo‘shma investitsiya va sanoat loyihasini qamrab oladigan “Turkiy dunyo — 100” dasturini qabul qilish, turkiy davlatlarning logistika tarmog‘ini yaratish, “TDT plyus” formatini rivojlantirish, tadbirkorlarni huquqiy himoya qilish mexanizmlarini joriy etish hamda turizm va ta’lim sohalaridagi aloqalarni kengaytirish kabi tashabbuslarni ilgari surdi.

Sammit Anqara deklaratsiyasi va hamkorlikni yanada mustahkamlashga doir qator hujjatlar qabul qilinishi bilan yakunlandi. Tadbirda navbatdagi sammitni 2027-yilda O‘zbekistonda o‘tkazish to‘g‘risida qaror qabul qilindi.

O‘zbekistonning TDT 13-sammitidagi ishtiroki yakunlari, ilgari surilgan muhim tashabbuslar va ularning turkiy davlatlar o‘rtasidagi hamkorlikni yanada mustahkamlashdagi ahamiyati xalqaro ekspertlar tomonidan e’tirof etilib, yetakchi ommaviy axborot vositalarida keng yoritildi.

“O‘z” g‘oyasi ilgari surildi

Uch yil avval qurilishi boshlangan Yangi Toshkent mamlakatimiz tarixidagi eng yirik shaharsozlik loyihasidir. Xavfsiz va “yashil” shahar sifatida barpo etilayotgan hududda birinchi bosqichning o‘zida zamonaviy texnologik yechimlarga asoslangan 50 milliard dollarlik loyihalarni amalga oshirish ko‘zda tutilgan. Shaharda 2000 gektar yashil maydon va 500 gektar istirohat bog‘lari tashkil etiladi. “Yashil qurilish standartlari” asosida 150 million kvadrat metr turar va noturar joy maydonlari barpo qilinadi. O‘tgan davrda Yangi Toshkentda 2 milliard dollarlik ishlar bajarildi. Turar joylar, universitetlar, kutubxona va amfiteatr qurildi.

Prezidentimiz **12-oktabr** kuni Yangi Toshkentda bunyod etilgan navbatdagi inshootlarni ishga tushirish va yangi loyihalarning qurilishiga start berish marosimida ishtirok etdi. Unda umumiy qiymati 1 milliard dollar bo‘lgan yettita obyekt ishga tushirildi.



Bular “Sharq bahori” turar joy majmuasining birinchi bosqichi, yo‘l va infratuzilma obyektlari, “Yangi Toshkent” 1-son nimstansiyasi, trigeneratsiya stansiyasi, Savdo-sanoat palatasi binosi, “Sohil bog‘i” istirohat bog‘i hamda 2000 o‘rinli umumta’lim maktabidir.

Marosimda Xitoy, Turkiya, Birlashgan Arab Amirliklari va boshqa xorijlik hamkorlar ishtirokida umumiy qiymati 2,5 milliard dollar bo‘lgan yana o‘nta yirik loyiha qurilishiga start berildi.

Davlatimiz rahbari Yangi Toshkent qurilishini jadallashtirish masalalari yuzasidan shu kuni investor va tadbirkorlar bilan ochiq muloqot o‘tkazdi. Prezidentimiz investorlarni mahalliy va xorijlikka ajratishga munosabat bildirar ekan, “Kapitalning, ilg‘or g‘oyaning va halol mehnatning millati yo‘q!” deb ta’kidladi. Shu ma’noda, Yangi Toshkent va “Shirin” massivi qurilishida ishtirok etayotgan har bir tadbirkor yurtimiz taraqqiyotiga hissa qo‘shayotgani qayd etildi.

O‘zbekiston iqtisodiyoti uchun yangi g‘oya — “O‘Z” falsafasi ilgari surildi. Mamlakatimiz yetakchisi investor va tadbirkorlarni “O‘z g‘oyang! O‘z sarmoyang! O‘z kelajaging! Yangi O‘zbekiston, Yangi Toshkent — o‘zimizniki!” degan yangi shior atrofida birlashishga chaqirdi.

“O‘Z” — O‘zbekiston, O‘zgarish, O‘zlik va Mas’uliyat degani. Kimki yurtimizga sarmoya kiritib, zamonaviy texnologiya olib kelsa va odamlarga ish o‘rni yaratsa, qaysi mamlakat yoki shahardan kelganidan qat’i nazar, umumiy taraqqiyotga hissa qo‘shadi.

O‘zbekiston yetakchisining **21-22-oktabr** kunlari Qashqadaryo viloyatiga tashrifi tafsilotlari va muhim tashabbuslar haqida to‘xtalishdan avval bir gapni aytish o‘rinli bo‘lardi: Qashqadaryo sanoati rivojlanib, milliy mahsulotlari jahon bozoridan munosib o‘rin egallab, aholisi bugunidan rozi, ertangi kuniga katta ishonch bilan yashayotgan viloyat!

Prezidentimizning Qashqadaryoga bu galgi tashrifi ana shu o‘sish, o‘zgarishlarga yanada ko‘tarinki ruh va so‘nmas shiddat bag‘ishladi. Ayni damda yangi O‘zbekistondagi islohotlar ko‘lamiga munosib yangi marralar belgilab berildi. Masalan, hududga jalb qilinayotgan investitsiyalar mavzusiga chuqurroq yondashib ko‘raylik. Yaratilayotgan imkoniyat va sharoitlar tufayli mamlakatimiz bilan hamkorlik qilish istagidagi xorijlik sarmoyadorlar safi tobora kengayib bormoqda.



Qashqadaryoga so‘nggi besh yilda 20 trillion so‘m yo‘naltirilib, 7 milliard dollarlik chet el investitsiyasi jalb qilingan. Natijada xomashyoni chuqur qayta ishlaydigan minglab loyihalar ishga tushdi. Daromad aholi jon boshiga uch baravar oshdi. Prezidentimiz Qashqadaryo viloyatiga tashrifi chog‘ida ana shunday investorlarning bir guruhi bilan muloqot qilib, yangi loyihalarni ishga tushirish va qurilishiga start berdi.

— Endi yetishtirilgan mahsulotni viloyatning o‘zida chuqur qayta ishlab, voha aholisining munosib daromad topishiga sharoit yaratish kerak, — dedi Prezidentimiz.

Umumiy qiymati 6 milliard dollardan ziyod bo‘lgan 161 ta yangi loyiha ana shu maqsad uchun xizmat qiladi. Marosimda 69 ta loyiha ishga tushirildi. Yana 92 tasining qurilishiga start berildi. Ishga tushirilayotgan 28 ta sanoat korxonasida 7000 ga yaqin doimiy ish o‘rni ochilmoqda. Muhimi, ushbu ishlab chiqarish quvvatlari zamon talablariga to‘la javob beradi.

O‘zbekiston yetakchisi viloyatga sarmoya, yangi texnologiya va innovatsiyalar olib kirayotgani uchun xorijlik investorlarga minnatdorlik bildirdi. Ularning takliflarini tingladi.

22-oktabr kuni Qashqadaryo viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga bag‘ishlangan yig‘ilish bo‘lib o‘tdi. Unda ko‘plab masalalar qatori yirik loyihalarning samarasi har bir mahallada sezilishi kerakligiga e’tibor qaratildi. Qamashi tumanidagi Chim mahallasida maktab, bog‘cha, poliklinika, yoshlar markazi, sport majmuasi va istirohat bog‘i barpo etildi. Eng muhimi, mahallada kambag‘al oila va ishsiz aholi qolmadi. Kelgusi yil Mustaqillik bayramigacha shu tajriba asosida har bir tumanda ikkitadan zamonaviy mahalla markazi tashkil etiladi. Mirishkorda limonchilik, baliqchilik va bog‘dorchilik loyihalari boshlanadi, ijaraga berilgan yerlarda yuqori daromadli ekinlar yetishtirish ko‘lami kengaytiriladi.

Bunday tashabbuslarni amalga oshirishda banklar faqat yangi kredit mahsulotlarini taklif etish bilan cheklanmasligi ta’kidlandi. Ularning ishi resurs olgan korxonalar soni va biznesning o‘sishi bilan baholanadi. Kredit ajratishda pul oqimi va aniq buyurtmalarni hisobga olish, tadbirkorlardan so‘raladigan ortiqcha hujjatlarni bekor qilish vazifasi qo‘yildi.

Yig‘ilish yakunida viloyat va tumanlar hokimlarining axboroti tinglandi, faollar bilan muloqot qilindi.

Ma’rifat va ma’naviyat kesishgan nuqta

Ta’lim sohasidagi har bir o‘zgarishning haqiqiy qiymati, avvalo, inson hayotidagi natijasi bilan o‘lchanadi. Zero, ta’lim olishimizdan asosiy mantiq ham shunda. So‘nggi yillarda mamlakatimizda ta’lim-tarbiya tizimini yangi bosqichga olib chiqish borasida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Prezidentimiz **3-oktabr** kuni “O‘zbekiston Respublikasi Ta’lim va ilm-fan vazirligini tashkil etish to‘g‘risida”gi farmonni imzoladi. Bu mamlakatimizda ta’lim va ilm-fan sohasini izchil isloh qilish yo‘lidagi muhim qadam bo‘ldi. Mazkur hujjat ta’lim va ilm-fan taraqqiyotini yangi bosqichga olib chiqish, ularning o‘zaro uyg‘unligi va uzviyligini ta’minlash, eng muhimi, bilim va ilmiy salohiyatni mamlakat taraqqiyotining strategik omiliga aylantirishga qaratilgani bilan ahamiyatlidir.

Binobarin, ushbu farmon zamirida ta’limning turli bosqichlarini yagona mantiq asosida bog‘lash, ilm-fanning ta’lim bilan uyg‘unligini kuchaytirish va inson kapitalini rivojlantirishga qaratilgan yaxlit tizimni shakllantirish maqsadi mujassam.

Farmonning strategik ahamiyati Prezidentimiz ilgari surgan 7 ta milliy dastur mazmuni bilan hamohang. Davlatimiz rahbari birinchi milliy dasturni bilim va malakani taraqqiyotimizning asosiy kapitaliga aylantirishga yo‘naltirishini ta’kidladi. Bu yondashuv ta’lim va ilm-fanni ijtimoiy sohaning alohida yo‘nalishlari sifatida ko‘rishdan kengroq ma’no kasb etib, inson salohiyatini mamlakat taraqqiyotining bosh omili darajasiga ko‘tarishni nazarda tutadi. Shu jihatdan Ta’lim va ilm-fan vazirligini tashkil etish mazkur strategik maqsadni ta’limning barcha bosqichi va ilm-fan tizimida izchil amalga oshirish uchun muhim institutsional asos yaratadi.

Farmonga muvofiq, Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi hamda Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi negizida Ta’lim va ilm-fan vazirligi tashkil etildi. Yangi vazirlikning vakolati maktabgacha ta’lim va tarbiyadan boshlanib, umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasbiy, oliy, oliy ta’limdan keyingi ta’lim, kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish, qo‘shimcha hamda norasmiy ta’limgacha bo‘lgan jarayonlarni qamrab oladi.

Mazkur o‘zgarishning ahamiyati, avvalo, ta’limning inson hayotidagi uzluksizligiga yangicha yondashuvda ko‘rinadi. Insonning bilim va ko‘nikmalari bir ta’lim bosqichidan ikkinchisiga o‘tgan sari boyib borishi, maktabda olingan bilim kasbiy va oliy ta’limda rivojlanishi, keyinchalik esa mehnat faoliyati va ilmiy izlanishlar bilan uzviy davom etishi kerak. Yagona vazirlik ana shu uzviylikni boshqarish uchun institutsional asos yaratadi.

7-oktabr kuni Prezidentimiz Ta’lim va ilm-fan vazirligi faoliyatini tashkil etish hamda ta’lim tizimining barcha bosqichida amalga oshirilishi lozim bo‘lgan ustuvor vazifalar yuzasidan taqdimot bilan tanishdi.

Taqdimotda yangi vazirlik faoliyatini joylardagi haqiqiy holatga tayanib tashkil etish, takrorlanuvchi vazifalarni qisqartirish va hududiy bo‘g‘inlar mas’uliyatini kuchaytirish masalalari ko‘rib chiqildi. Boshqaruvni raqamlashtirish va tahliliy salohiyatni oshirish qarorlarni ishonchli ma’lumotlar asosida qabul qilishga xizmat qilishi ta’kidlandi.

* * *

Prezidentimiz **26-oktabr** kuni poytaxtimizdagi “Renessans” kino uyiga tashrif buyurib, kinematografiya sohasi xodimlari bilan uchrashdi hamda sohada amalga oshirilayotgan ishlar va kelgusi rejalarni muhokama qildi.

Davlatimiz rahbari bu dargohda milliy kino tariximiz, bir necha avlod ijodkorlarining mehnati, xalqimizning ekranga ko‘chgan orzulari, intilishlari va armonlari mujassam ekanini ta’kidladi.

“Mahallada duv-duv gap”, “O‘tkan kunlar”, “Shum bola”, “Chinor ostidagi duel”, “Suyunchi” kabi filmlarning qahramonlari xotiramizda yaqin insonlardek saqlanib qolgan. Ulardagi bir lavha, bir og‘iz so‘z yoki tanish kuy bolaligimiz, bobo-buvilarimiz va qadrdon mahallamizni ko‘z oldimizda gavdalantiradi.

Prezidentimiz o‘z davrida siyosiy va mafkuraviy bosimlar qanchalik og‘ir bo‘lmasin, ijodkorlarimiz ana shunday milliy san’at asarlarini yarata olganini tahsinga sazovor deb baholadi.

“O‘zbekfilm” yaratgan bu maktab mustaqillik yillarida ham davom ettirildi. 2016-yilda filmlar olish uchun davlat budjetidan 10 milliard so‘m ajratilgan bo‘lsa, joriy yilning o‘zida 218 milliard so‘m berildi. Davlatimiz rahbari natijada milliy filmlarimizning salmog‘i va sifati oshganini, sohaga o‘nlab xususiy kinostudiyalar kirib kelganini ta’kidladi.

Prezidentimiz kino yaratish uchun zamonaviy infratuzilma barpo etilishini ma’lum qildi. “O‘zbekfilm”ning 10 gektar hududida kino xizmatlari jamlangan yagona industrial klaster — “O‘zbekfilm kino shaharchasi” tashkil etiladi. Unda zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlangan Dublyaj va ovozlashtirish markazi quriladi.

— Mazkur dargohda milliy kino tariximiz, bir necha avlod ijodkorlarining mehnati, xalqimizning ekranga ko‘chgan orzulari, intilishlari va armonlari mujassam, — dedi Prezidentimiz.

Davlatimiz rahbari kino xalqlar bir-birini tanishiga xizmat qilishi, o‘z tarixi, madaniyati va milliy qahramonlarini jahon ekranlarida munosib ko‘rsata olgan mamlakatning ovozi va ta’siri kengayishini ta’kidladi. Kino bugun mamlakatning xalqaro nufuzini oshiradigan “yumshoq kuch”ga aylangan. U farzandlarimiz ongi va dunyoqarashini shakllantirishda ham katta ahamiyatga ega.

Mamlakatimiz yetakchisi “O‘z” g‘oyasining kino san’atidagi ifodasini “O‘zligimizni anglab, o‘z hikoyamizni o‘z ovozimiz bilan dunyoga aytish”, deya ta’rifladi. Ekranda ulug‘ ajdodlarimiz bilan birga bugun yonimizda yashayotgan insonlarning ham haqqoniy qiyofasi aks etishi kerakligini aytdi. O‘qituvchilar, shifokorlar, sportchilar, Vatan himoyachilari, tadbirkorlar, quruvchilar va yoshlarning hayoti ta’sirli filmlar uchun katta mavzu ekani qayd etildi.

— Farzandlarimiz shunday qahramonlarda o‘zini ko‘rsin, o‘z kuchiga ishonsin, o‘z yurtining kelajagiga daxldorligini his etsin! — dedi davlatimiz rahbari.

Prezidentimizga shu yerning o‘zida kino sohasiga zamonaviy boshqaruv usullarini joriy qilish va “O‘zbekfilm” milliy kino brendini yaratish yuzasidan takliflar taqdimot qilindi.

Ustuvor vazifalar ijrosi o‘zaro uyg‘unlik kasb etadi

Yuqoridagi tafsilotlardan tashqari, bir oy ichida davlatimiz rahbari ishtirokida dolzarb mavzular muhokama qilingan 12 ta taqdimot, 23 ta qabul va telefon muloqotlari bo‘lib o‘tdi. Prezidentimiz 8 ta tabrik va murojaat yo‘lladi. Imzolagan normativ-huquqiy hujjatlar soni esa 94 tani tashkil qildi. Shundan 10 tasi qonun, 28 tasi farmon, 53 tasi qaror va 3 ta farmoyishdir.

Umuman olganda, oktyabrda O‘zbekistonda kechgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar mamlakat taraqqiyotining tashqi va ichki yo‘nalishlaridagi ustuvor vazifalar o‘zaro uyg‘unlikda amalga oshirilayotganini ko‘rsatdi. Tashqi siyosatda Markaziy Osiyo davlatlari va xalqaro hamkorlar bilan strategik sheriklikni mustahkamlash, savdo-iqtisodiy aloqalarni kengaytirish, mintaqaviy xavfsizlik va transport bog‘liqligini rivojlantirish masalalariga alohida e’tibor qaratildi.

Ichki siyosatda esa investitsiyalarni jalb qilish, hududlarni kompleks rivojlantirish, yangi ish o‘rinlari yaratish, ta’lim va ilm-fan tizimini takomillashtirish hamda milliy ma’naviy merosni asrab-avaylashga qaratilgan tashabbuslar kun tartibidan o‘rin oldi.

Oy davomida ilgari surilgan tashabbus va rejalarning ahamiyati ularning amaliy ijrosi, aholi turmush sifatiga ta’siri, iqtisodiy samaradorligi va jamiyatdagi ijtimoiy o‘zgarishlarda namoyon bo‘lishi bilan belgilanadi. Bu esa belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mas’ul idoralar faoliyatining natijadorligi, jamoatchilik nazorati va ochiqlikni ta’minlash muhimligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, O‘zbekistonning xalqaro hamkorlik salohiyatini kengaytirish, ichki taraqqiyotni jadallashtirish va inson kapitalini rivojlantirishga qaratilgan siyosatning asosiy yo‘nalishlarini yana bir bor namoyon etdi.



Nuqtayi nazar

Turkiy davlatlar tashkilotiga a’zo mamlakatlar aholisi esa 180 million kishi. Bu aholining 60 foizini yoshlar tashkil etadi. Ochiq manbalarga ko‘ra, tashkilotga a’zo davlatlarning umumiy yalpi ichki mahsuloti 2,5 trillion dollarga teng. Bu ulkan ishchi kuchi va katta iste’mol bozori degani. Agar tashkilotga a’zo davlatlar o‘z salohiyatidan to‘g‘ri foydalansa, o‘zaro imkoniyatlar almashinuvi orqali ko‘plab iqtisodiy imkoniyatlar eshigi ochiladi.

YANGI O‘ZBEKISTON

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz.uz_news

TURKIY DUNYO: TARIXIY YAQINLIKDAN STRATEGIK SHERIKLIK SARI

Boshlanishi 1-betda

Ayniqsa, yonma-yon yashovchi qardosh xalqlar o‘zaro yoki tashqi aloqalarni kengaytirishga, birgalikda ish ko‘rishga harakat qilishsa, shu nozik masala — chegara muammosi qo‘zg‘atilayotgan holatlar ham kuzatilgan. Hatto siyosiy nizolar xalqlarni bir-biriga dushman qilib, yuz ko‘rmas darajaga olib keldi. Buni tarixda bo‘lib o‘tgan chegara nizolarini ko‘z oldimizga keltirib ham eslashimiz mumkin.

Bugun manzara butkul o‘zgarmoqda. Mintaqada nafaqat tinchlik shukuhi, balki xalqlarning bir-biriga munosabati ham tubdan o‘zgarayotir. Qirg‘iziston Prezidenti Sadir Japarov o‘z faoliyatining besh yilligiga bag‘ishlangan filmda Tojikiston va Qirg‘iziston chegarasidagi murakkab masalani hal etishda O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning o‘rni va ko‘magini alohida e’tirof etgani bejiz emas. Xususan, ikki davlat o‘rtasidagi ziddiyatlar yanada keskinlashib ketmasligi, mojaro mintaqaviy xavfsizlikka jiddiy tahdid solishining oldini olish uchun davlatimiz rahbari tomonidan ikki tomonni faol muloqot va muzokaralarga undashga qaratilgan sa’y-harakatlar muhim ahamiyat kasb etganiga urg‘u beriladi.

Albatta, barcha davlatlarning bir yoqadan bosh chiqarib, chegara masalasini hal qilishga kelishgani, eski adovatlarni unutib, yangi istiqbollar sari qadam tashlayotgani, mintaqadagi tinchlik va hamkorlik nafaqat investitsiyaga yo‘l ochgani, balki mintaqaga nisbatan xalqaro ishonchni ham kuchaytirgani haqida ko‘p gapirishimiz mumkin. Biroq mavzudan chetlashib ketamiz. Biz urg‘u bermoqchi bo‘lgan jihat mintaqadagi tinchlik Turkiy davlatlar tashkilotining siyosiy va iqtisodiy jihatdan xalqaro maydonda muhim tuzilmaga aylanishiga qaysidir ma’noda zamin yaratganidir.

Bugun xalqaro maydondagi manzara, iqtisodiy bo‘hronlar, siyosiy o‘yinlar, bir davlatning boshqa biri chegarasini buzib o‘tib, haq-huquqini poymol qilib, o‘z kuchini ko‘rsatayotgan bir paytda xalqlar o‘rtasidagi nizolardan manfaatdor kuchlar mavjud bo‘lgan sharoitda yaqin do‘st va hamkor topish har qachongidan ham dolzarb masalaga aylanmoqda. Bunday vaqtda asrlar davomida bir hududda yashagan, savdo qilgan, quvonchu tashvishlarni birga baham ko‘rgan xalqlar o‘rtasidagi yaqinlikni hech kim inkor etolmaydi. Endi bu yaqinlikni iqtisodiy kuchga aylantirish har qachongidan muhim masala bo‘lib bormoqda.

Masalaga bir oz kengroq yondashsak. Bugun yaqin yillargacha juda katta iqtisodiy salohiyatga ega bo‘lgan Yevropaning o‘zi ham qo‘shimcha bozor va ishchi kuchi izlamoqda. Bunga aholi soni kamayishi, atrofida yuz berayotgan siyosiy nizolar sabab bo‘layotir.

Turkiy davlatlar tashkilotiga a’zo mamlakatlar aholisi esa 180 million kishi. Bu aholining 60 foizini yoshlar tashkil etadi. Ochiq manbalarga ko‘ra, tashkilotga a’zo davlatlarning umumiy yalpi ichki mahsuloti 2,5 trillion dollarga teng. Bu ulkan ishchi kuchi va katta iste’mol bozori degani. Agar tashkilotga a’zo davlatlar o‘z salohiyatidan to‘g‘ri foydalansa, o‘zaro imkoniyatlar almashinuvi orqali ko‘plab iqtisodiy imkoniyatlar eshigi ochiladi.



> **Prezidentimiz nutqida noyob va strategik minerallarni chuqur qayta ishlash, “yashil” energetika uskunalari ishlab chiqarishni mahalliylashtirishga alohida e’tibor qaratilgani bejiz emas. Chunki bugun dunyo yangi energetika davriga kirmoqda. Kim bu jarayonda faqat xomashyo yetkazib beruvchi bo‘lib qolsa, iqtisodiy qiymatning katta qismini boshqalar yaratadi.**

Anqarada bo‘lib o‘tgan sammitda davlatimiz rahbari tomonidan ilgari surilgan “Turkiy dunyo — 100” tashabbusi ham bu borada ahamiyatlidir. Boisi, bugun tabiiy boyliklarga egalik qilishning o‘zi yoki faqat xomashyo yetkazib berish hech bir davlatga iqtisodiy ustunlik bermayapti. Buni jahon bozoridagi jarayonlardan ham ko‘rish mumkin. Elektromobil, akkumulyator, yarimo‘tkazgich va qayta tiklanuvchi energetika texnologiyalari uchun zarur noyob minerallarga talab keskin ortib bormoqda. Ammo bu resurslarning kimga tegishli ekanidan ko‘ra, ularni kim qayta ishlashi va kim zamonaviy mahsulotga aylantirishi muhimroq bo‘lib bormoqda.

Prezidentimiz nutqida noyob va strategik minerallarni chuqur qayta ishlash, “yashil” energetika uskunalari ishlab chiqarishni mahalliylashtirishga alohida e’tibor qaratilgani bejiz emas. Chunki bugun dunyo yangi energetika davriga kirmoqda. Kim bu jarayonda faqat xomashyo yetkazib beruvchi bo‘lib qolsa, iqtisodiy qiymatning katta qismini boshqalar yaratadi.

Global ta’minot zanjirlari qayta shakllanayotgan, xalqaro savdo yo‘nalishlaridagi beqarorlik kuchayayotgan bugungi sharoitda transport-logistika tizimini rivojlantirish strategik ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, Markaziy Osiyoni Ozarbayjon va Turkiya orqali Yevropa bilan bog‘laydigan O‘rta yo‘lak mintaqamiz davlatlari uchun yangi iqtisodiy imkoniyatlar eshigini ochadi. Zero, Xitoydan Yevropa bozorlariga yo‘naltirilayotgan ulkan tovar oqimining bir qismini Markaziy Osiyo orqali o‘tkazish nafaqat transport xarajatlarini optimallashtirish, balki mintaqamizni xalqaro savdo va logistika markazlaridan biriga aylantirish imkonini ham beradi.

Shu nuqtai nazardan, davlatimiz rahbari tomonidan turkiy davlatlar logistika komplekslari tarmog‘ini tashkil etish va uni birgalikda boshqarish tashabbusi ilgari surilishi alohida ahamiyatga ega. Bu, avvalo, ishtirokchi davlatlarda zamonaviy transport terminallari, bojxona postlari, omborxonalar, ulgurji savdo markazlari va logistika majmualarini barpo etish, xizmat ko‘rsatish sohasini kengaytirish uchun yangi imkoniyatlar yaratadi. Natijada yuk tashish bilan bog‘liq xizmatlardan tortib, savdo, umumiy ovqatlanish, mehmonxona va boshqa sohalargacha bo‘lgan iqtisodiy faollik jonlanadi. Eng muhimi, bunday jarayonlar minglab yangi ish o‘rni yaratib, aholi daromadlari va hududlar iqtisodiy salohiyati oshishiga xizmat qiladi.

Ochiq ma’lumotlarga ko‘ra, jahon yalpi ichki mahsulotida turizmning ulushi qariyb 10 foizni tashkil etadi. Bu juda katta ko‘rsatkich. Zero, turizm minglab zavod va fabrikalar singari iqtisodiyotga daromad keltiradigan, bir vaqtning o‘zida ko‘plab sohalarni harakatga soladigan muhim tarmoqdir. 2025-yilda turkiy davlatlarga 100 milliondan ziyod sayyoh tashrif buyurgani ham mintaqaning ulkan turistik salohiyatidan dalolat beradi.

Bugun dunyoda turizm iqtisodiyotning muhim tayanch tarmog‘iga aylangan mamlakatlar ko‘p. Ular tarixiy obidalari, betakror tabiati, milliy urf-odatlari va madaniy merosini jahonga namoyon etish orqali har yili milliardlab daromad olmoqda. Eng muhimi, bu jarayon mehmonxona, transport, savdo, umumiy ovqatlanish, hunarmandlik va boshqa xizmat ko‘rsatish sohalari rivojiga, yangi ish o‘rinlari yaratilishiga xizmat qilmoqda.

Shu nuqtai nazardan, davlatimiz rahbari tomonidan sammitda ilgari surilgan “Turkiy turizm alyansi”ni tashkil etish tashabbusi muhimdir. Zero, turkiy xalqlarning boy tarixi, qadimiy shaharlari, betakror tabiati va mehmondo‘stlik an’analarini birgalikda jahonga targ‘ib qilish orqali mintaqamizni yagona yirik turistik makon sifatida shakllantirish imkoniyati mavjud.

Masalaga bir oz chuqurroq yondashsak, birgina Yevropa Ittifoqi misolida yuqoridagi tashabbusning ahamiyati naqadar muhim ekanini ko‘rishimiz mumkin. Bugun Yevropa mamlakatlari o‘rtasida fuqarolarning erkin harakatlanishi uchun keng imkoniyatlar yaratilgan. Yevropa Ittifoqi fuqarolari boshqa a’zo davlatlarga milliy ID-karta yoki pasport orqali uch oygacha borib, erkin safar qilishi mumkin. Fuqarolarning erkin harakatlanishi, chegaralardan o‘tish tartibi soddalashtirilishi va yagona iqtisodiy makon shakllanishi Yevropa integratsiyasining muhim tayanchlaridan biriga aylangan. Ma’lumotlarga ko‘ra, bugun Shengen hududida 450 milliondan ziyod aholi chegaralarda muntazam pasport nazoratisiz safar qilish imkoniyatiga ega. Har yili ushbu hududda bir milliarddan ortiq safar amalga oshiriladi. Bu esa turizm, savdo, mehnat bozori va xizmat ko‘rsatish sohalari rivojlanishiga katta hissa qo‘shmoqda.

Turkiy davlatlar ham ana shu tajribadan kelib chiqib fuqarolarning o‘zaro safarlarini yengillashtirishga qaratilgan ko‘p tomonlama bitimni ishlab chiqishi muhim. Xususan, davlatimiz rahbari tomonidan ilgari surilgan ID-kartalar asosida safar qilish imkoniyatlarini kengaytirish, chegaradan o‘tish va mezbon davlat hududida bo‘lish tartiblarini soddalashtirish xalqlarimiz o‘rtasidagi bordi-keldini yanada jonlantiradi. Buning natijasida sayyohlar oqimi ko‘payadi, tadbirkorlar uchun yangi imkoniyatlar ochiladi, mehnat va ta’lim almashinuvi kengayadi. Eng muhimi, integratsiya jarayonlari fuqarolar hayotida ham amaliy ifodasini topadi.

Bugun jahon iqtisodiyotining yangi xaritasi chizilmoqda. Bu xaritada kimning qanday resursga egaligi bilan birga uni kim bilan birgalikda ishlatishi, qaysi bozorlarga chiqa olishi va qanday hamkorlik zanjirlarini yarata bilishi ham hal qiluvchi ahamiyat kasb etmoqda. Turkiy davlatlar esa bunday hamkorlik uchun zarur ko‘plab imkoniyatlarga ega. Ularni birlashtirish orqali mintaqa nafaqat yirik iste’mol bozori, balki sanoat, logistika, turizm va zamonaviy texnologiyalar markazlaridan biriga aylanish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Albatta, bu yo‘lda hal etilishi lozim bo‘lgan vazifalar kam emas. Iqtisodiy manfaatlarni muvofiqlashtirish, infratuzilmani rivojlantirish, qonunchilikdagi tafovutlarni qisqartirish va qo‘shma loyihalarni izchil amalga oshirish talab etiladi. Ammo eng muhimi, bugun bunday hamkorlik uchun siyosiy muloqot va o‘zaro ishonch asoslari shakllanmoqda.

Sardor TOLLIBOYEV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Yangicha yondashuvlar

Orolbo‘yi xalqaro innovatsiya markazidagi so‘lim tabiat kishini doim o‘ziga jalb qiladi. Ana shu go‘zal va yoqimli tabiat asta-sekin yurtimiz kengliklari bo‘ylab quloch yozayotganini his etasiz. Bu bejiz emas. Axir Orolbo‘yi hududida va Orol dengizi qurigan tubidagi sho‘rlangan yerda ekotizim va barqaror turmush darajasini ta’minlash, daraxt va buta ko‘chatlarini ekishda qo‘llanadigan zamonaviy suv tejovchi texnologiyalarni qo‘llash markazning asosiy vazifasidir.

QORAQALPOG‘ISTON EKOLOGIK XAVFSIZ HUDUDGA AYLANMOQDA





— Majmua tajriba-sinov ishlarini o‘tkazish uchun eksperimental maydonlar yaratadi, — deydi Orolbo‘yi xalqaro innovatsiya markazi direktori Baxitjan Habibullayev. — Unda innovatsion texnologiyalar va ilmiy yondashuvlar sinovdan o‘tkaziladi. Jumladan, iqlim o‘zgarishi oqibatlarini yumshatish, cho‘l va qurg‘oqchilikka chidamli o‘simliklarni introduksiya qilish hamda ularni mahalliy sharoitga moslashtirish ishlari bajariladi. Shuningdek, hududlarda ekologik sog‘lom muhitni shakllantirish, “yashil” energetika va agroo‘rmon melioratsiyasini rivojlantirish bo‘yicha ishlar qilinadi. Xalqaro tashkilotlar bilan ekologik muammolarga yechim topish, innovatsiyalarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish bo‘yicha hamkorlik qiladi.

Markaz ilmiy tadqiqotlar olib borish va loyihalarni amalga oshirish bo‘yicha 80 dan ortiq xorijiy va mahalliy tashkilotlar bilan o‘zaro hamkorlik to‘g‘risida kelishuvlar va memorandumlar imzolagan. Jumladan, Xitoy Fanlar akademiyasining Sinszyan Ekologiya va geografiya instituti bilan Orolbo‘yi mintaqasida “yashil” texnologiyalarni tadqiq qilish, ishlab chiqish va namoyish etish bo‘yicha qo‘shma laboratoriya tashkil etish to‘g‘risidagi shartnoma imzolangan. Buning uchun markazga qiymati 127 ming dollarlik laboratoriya uskunalari yetkazib berildi. Hozir ixtisoslashgan laboratoriya ish boshlagan. Unda Xitoy va Markaziy Osiyo mamlakatlarining tajribasi hamda texnologiyalaridan ekologik tiklanish, suvni tejash, oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash, suv resurslaridan barqaror foydalanish va bioxilma-xillikni saqlash kabi muhim yo‘nalishlarda foydalaniladi. Ayni paytda loyihalar doirasida tuproq va suvning sho‘rlanish darajasi, shuningdek, boshqa ko‘rsatkichlar bo‘yicha laboratoriya tahlillari o‘tkazilmoqda.

Shuningdek, Sinszyan Ekologiya va geografiya instituti bilan hamkorlikda Qoraqalpog‘istonda dorivor sahro jensheni (sistanxe)ni yetishtirish loyihasi ham amalga oshirilmoqda. Mo‘ynoqdagi ilmiy ishlab chiqarish maydonchasida xitoylik olimlar bilan birga sahro jensheni urug‘i tajriba tariqasida ekilmoqda.

Orolbo‘yi xalqaro innovatsiya markazi Qoraqalpog‘iston qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyasi instituti bilan hamkorlikda yana bir katta loyiha amalga oshirildi. Orol dengizi hududida oziq-ovqat xavfsizligini oshirish uchun chorvachilik sohasida galofit o‘simliklardan yem-xashak yetishtirishning iqlimga chidamli innovatsion yondashuvlari va texnologiyalari mavzusidagi loyihaga 2,8 milliard so‘m ajratilgan. 2022-2025-yillarga mo‘ljallangan loyiha asosida sho‘rlangan tuproqlarning ekologik-meliorativ holati kompleks baholandi. Sho‘rlanishning asosiy omillari va zaharli tuzlarning vertikal taqsimlanishiga ta’siri aniqlandi.

— Markazimiz Qorako‘lchilik va cho‘l ekologiyasi ilmiy-tadqiqot instituti bilan hamkorlikda qiymati 969,42 million so‘mlik “Orol dengizi qurigan tubi sharoitida cho‘l ozuqabop o‘simlik navlarini sinash va istiqbolli tur navlarining birlamchi urug‘chiligini tashkil qilish” mavzusidagi 2022-2025-yillarga mo‘ljallangan loyihani amalga oshirib kelmoqda. Uning doirasida cho‘l o‘simliklarining 400 kilogramm urug‘i Orol dengizining qurigan tubiga ekildi. Loyiha natijasida qora saksovulning “Nortuya” va cherkezning “Baraka” navlari hudud sharoitiga yaxshi moslashdi. Shu bilan birga, yuqori sho‘rlanish va ozuqa moddalar tanqisligi asosiy cheklovchi omil ekani aniqlandi. Buni bartaraf etish bo‘yicha aniq agrotexnik tavsiyalar ishlab chiqildi, — deydi Baxitjan Habibullayev.

Abu-Dabi taraqqiyot fondi (BAA) “Qoraqalpog‘istonning degradatsiyaga uchragan hududlarida barqaror qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish tizimlarini rivojlantirish” loyihasini moliyalashtirmoqda. 2023-2026-yillarga mo‘ljallangan ushbu loyiha Mo‘ynoq va Nukus tumanlaridagi 2 gektar tajriba maydonida amalga oshirilmoqda. Uning doirasida jo‘xorining 23 navi, Afrika tarig‘ining 6 namunasi, loviya, moshning 4 ta navi, kungaboqarning 3 navi Orolbo‘yi hududida ekilib, sinalmoqda. Orol dengizi bo‘yidagi ekologik inqiroz oqibatlarini yumshatish va unga moslashish chora-tadbirlari ishlab chiqilmoqda.

“Qoraqalpog‘istonning degradatsiyaga uchragan hududlarida barqaror qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish tizimlarini rivojlantirish” loyihasi nufuzli “Energy Globe Award 2024” mukofotining milliy g‘olibi bo‘ldi. Loyiha doirasida markaz huzurida qiymati 1,970 milliard so‘mlik integratsiyalashgan agro akvakultura tizimlari inshootlari qurib bitkazildi. Ushbu zamonaviy tizim 2025-yil sentyabrda Abu-Dabi taraqqiyot fondi va ICBA tashkiloti rahbariyati tomonidan tantanali ishga tushirildi. Hozir mazkur tizimda baliqlar, sho‘rga chidamli sabzavotlar va spirulina suv o‘ti muvaffaqiyatli yetishtirilmoqda.

— Prezidentimizning 2020-yil 12-fevraldagi tegishli qaroriga muvofiq, Mo‘ynoq tumanida “Oroldagi bog‘im” loyihasi doirasida manzarali daraxtzorlar barpo etish bo‘yicha ishlar bajarilmoqda. Loyiha doirasida Mo‘ynoqda 14,5 gektarli manzarali va mevali daraxtzorlar, Orolning qurigan tubidagi 122 gektarda saksovul ko‘chatzori barpo etildi, — deydi loyiha rahbari Tojiddin Asomiddinov. — Markaz huzurida “Bog‘bonlar maktabi” tashkil etildi. 2024-yili Nukus tumanidagi 2 gektar yerda olma, nok, shaftoli ko‘chatlari ekildi va intensiv boqqa asos solindi. Unda tomchilatib sug‘orish tizimi o‘rnatildi. Dorivor na’matak va chilonjiyda plantatsiyasi tashkil etildi. Mo‘ynoq tumanidagi 7,6 gektar maydonda jo‘xori, kunjut, kungaboqar, dorivor chilonjiyda, jiyda, goji va cho‘l o‘simliklari maydoni yaratilib, Orolning qurigan tubidagi 1 gektar maydonda cho‘l o‘simliklarining ko‘rgazmali maydonchasi barpo etildi.

Orolbo‘yi innovatsion markazining loyihalari bilan tanishar ekanmiz, haqiqatan iqlim sharoiti uchun mos keladigan ishlanmaga guvoh bo‘ldik. Markaz tomonidan Germaniya xalqaro hamkorlik jamiyati (GIZ) bilan birgalikda qiymati 261 million so‘mni tashkil qiladigan “Hovuz usulida sun’iy yo‘l bilan artemiya o‘stirish” loyihasi 2024-yilda boshlangan edi. Xo‘jayli tumanida 2 gektar maydonda sun’iy suv havzalari barpo etilib, hovuzlarga artemiya sistalari solingan. Loyiha natija bera boshladi. Bu nafaqat iqtisodiy foyda, balki mintaqaning ekologik farovonligi va barqaror rivojlanishiga katta hissa qo‘shishi kutilmoqda. Hozir monitoring va tadqiqot ishlari bajarilmoqda.

Orolbo‘yi xalqaro innovatsiya markazi, Germaniyaning Drezden texnika universiteti va Innovatsion rivojlanish agentligi hamkorligida xalqaro loyiha yo‘lga qo‘yildi. “FARM” deb nomlangan ushbu loyihaning umumiy qiymati 805,8 million so‘mni tashkil etadi. Loyihaning asosiy maqsadi O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligini barqaror rivojlantirish uchun Qoraqalpog‘iston yer osti suvidan samarali foydalanish yo‘llarini ishlab chiqishdir. Mazkur xalqaro loyihani amalga oshirish ishlari 2025-yil mart oyidan boshlangan. Uning doirasida mintaqada yer osti suvidan foydalanish istiqbollari belgilanib, qishloq xo‘jaligi sohasi uchun muhim takliflar ishlab chiqildi. Hozir tegishli ilmiy tadqiqot ishlari izchil davom ettirilmoqda.

— Orolbo‘yi xalqaro innovatsiya markazi negizida “yashil” bilim va yechimlarni transfer qilish bo‘yicha ilmiy-axborot platformasi ishga tushiriladi. Ushbu tashabbusni Prezidentimiz 2023-yili Pekinda bo‘lib o‘tgan “Bir makon — bir yo‘l” xalqaro forumida ilgari surgan edi. Platforma Xitoyning Sinszyan Ekologiya va geografiya instituti bilan hamkorlikda tashkil etiladi. Yangi tizim orqali ilmiy ishlanmalar, innovatsion texnologiyalar va amaliy yechimlarni hayotga joriy etish rejalashtirilgan. Shuningdek, ushbu platforma xalqaro ilg‘or tajribalarni mahalliy sharoitga moslashtirishga xizmat qiladi, — deydi Baxitjan Habibullayev.

Shuningdek, markaz tomonidan 2023-yildan buyon tajriba-sinov tariqasida yetishtirilayotgan g‘arov (arundo) o‘simligi maydonini 2026-yilda kengaytirish va uning iqtisodiy samaradorligini oshirish ko‘zda tutilgan. Qolaversa, “Oroldagi bog‘im” loyihasini kengaytirish, xususan, saksovul ekish maydonlarini ko‘paytirish maqsadida xalqaro donor tashkilotlar bilan muzokaralar o‘tkazilmoqda.

Mazkur loyihalardan tashqari markaz tomonidan yer yong‘oq, kunjut va jo‘xori yetishtirish, manzarali va dorivor, cho‘lga, sho‘rga va qurg‘oqchilikka chidamli o‘simliklar uchun ko‘rgazmali maydoncha hamda ko‘chatxona tashkil etish bo‘yicha loyiha takliflari ishlab chiqilgan. Ayni paytda ushbu loyihalarni moliyalashtirish masalalari yuzasidan xalqaro donor tashkilotlar bilan muzokaralar davom etmoqda.

Minajatdin QUTLIMURATOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Akademiyaning xorijiy hamkorlik yo‘nalishidagi faoliyati 2025-yilda izchil rivojlandi. Koreya Respublikasi, Germaniya va Fransiyadagi tegishli ta’lim hamda davlat boshqaruvi muassasalari bilan hamkorlikda tashkil etilgan dasturlar tinglovchilarning kasbiy rivojlanishiga xizmat qildi.



XORIJIY TAJRIBA – ILM-FAN RIVOJI YO‘LIDA

Kamolot pillapoyasi

Bugungi global o‘zgarishlar davrida davlat boshqaruvi samaradorligi, eng avvalo, inson kapitali sifati, rahbar kadrlar salohiyati va zamonaviy bilimlarni amaliyotga tatbiq eta olish qobiliyati bilan belgilanmoqda. Raqamli texnologiyalar jadal rivojlanayotgan, sun’iy intellekt boshqaruv jarayonlariga tobora chuqur kirib borayotgan bir sharoitda davlat xizmatchisidan nafaqat mavjud vazifalarni bajarish, balki yangicha fikrlash, strategik qarorlar qabul qilish va kelajakdagi o‘zgarishlarni oldindan ko‘ra bilish ham talab etilmoqda.



Raima SHIRINOVA,
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi prorektori, filologiya fanlari doktori, professor

Davlat boshqaruvi uchun salohiyatli kadrlarni tayyorlash, kasbiy mahoratini muntazam oshirib borish va ilg‘or xorijiy tajribani milliy amaliyotga olib kirish muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, zamonaviy davlat boshqaruvi, avvalo, bilimga tayangan qarorlar, innovatsion yondashuvlar va yuksak mas’uliyat uyg‘unligidir.

O‘zbekistonda ham ushbu yo‘nalishda muhim institutsional islohotlar kechmoqda. Prezidentimiz farmoni asosida Prezident huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi Prezident huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi etib qayta tashkil etildi. Bu o‘zgarish akademiya faoliyatida yangi bosqichni boshlab berib, boshqaruv kadrlarini tayyorlash sifatini oshirish, ta’lim va ilmiy tadqiqotlarga xalqaro standartlarni joriy etish, shuningdek, xorijiy hamkorlikni kengaytirish uchun yangi imkoniyatlar yaratdi.

Zamonaviy rahbarning kuchi faqat qaror qabul qilishda emas, balki o‘zgarishlarni oldindan ko‘ra bilish, yangilikni anglash va uni natijaga aylantirishdadir. Mazkur farmonda belgilangan ustuvor vazifalar qatorida davlat xizmatchilari va boshqaruv kadrlari salohiyatini ilg‘or xorijiy tajriba asosida rivojlantirish, kasbiy kompetensiyalarga asoslangan ta’lim tizimini takomillashtirish, xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda o‘quv dasturlarini amalga oshirish, raqamli texnologiyalar va sun’iy intellekt imkoniyatlaridan foydalanishga alohida e’tibor qaratilgan.

Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi tomonidan tashkil etilayotgan xorijiy stajirovka va malaka oshirish dasturlari ana shu vazifalarning amaliy ifodasidir. Bu dasturlar tinglovchilarga boshqa mamlakatlarning davlat boshqaruvi tajribasini o‘rganish, samarali institutsional yechimlar bilan tanishish, yangi bilim va ko‘nikmalarni egallash hamda xalqaro professional aloqalarni mustahkamlash imkonini bermoqda.

Akademiyaning xorijiy hamkorlik yo‘nalishidagi faoliyati 2025-yilda izchil rivojlandi. Koreya Respublikasi, Germaniya va Fransiyadagi tegishli ta’lim hamda davlat boshqaruvi muassasalari bilan hamkorlikda tashkil etilgan dasturlar tinglovchilarning kasbiy rivojlanishiga xizmat qildi.

Xususan, Koreya xalqaro hamkorlik agentligi (KOICA) va Koreya Respublikasi Inson resurslarini rivojlantirish milliy instituti (NHI) bilan hamkorlikda “Kelajak liderlari” kursi tinglovchilaridan 15 nafari Janubiy Koreyada stajirovka va malaka oshirish dasturida ishtirok etdi.

Janubiy Koreya tajribasi davlat boshqaruvida raqamli yechimlardan foydalanish, inson resurslarini rivojlantirish va institutsional samaradorlikni oshirish masalalarini o‘rganish nuqtai nazaridan muhim ahamiyatga ega. Bunday dasturlar tinglovchilarning zamonaviy boshqaruv yondashuvlari haqidagi tasavvurini kengaytirish bilan birga o‘zlashtirilgan bilimlarni milliy sharoitga moslashtirish uchun ham zamin yaratadi.

Germaniyada Xanns Zaydel jamg‘armasi va Bavariya davlat boshqaruvi maktabi bilan hamkorlikda tashkil etilgan dasturda “Hokimlikka tayyorlash maktabi”ning 21 tinglovchisi qatnashdi. Mazkur hamkorlik, ayniqsa, hududiy boshqaruvni takomillashtirish, rahbarlik ko‘nikmalarini rivojlantirish va mahalliy darajada samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilish tajribasini o‘rganishda ahamiyatlidir.



Shuningdek, “Rahbar ayollar” o‘quv kursi tinglovchilaridan 11 nafari Fransiyaning Davlat boshqaruvi milliy instituti (INSP) bilan bog‘liq stajirovka dasturida ishtirok etdi. Ushbu yo‘nalish rahbar ayollarning boshqaruv salohiyatini rivojlantirish, professional bilimlarini kengaytirish va xalqaro tajriba almashuvini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Hamkorlik geografiyasi

2026-yilda akademiyaning xalqaro hamkorlik aloqalari yangi mamlakatlar va ta’lim muassasalari bilan boyidi. Joriy yilning sentyabr holatiga ko‘ra, Ozarbayjon, Italiya, Xitoy, Qirg‘iziston va Fransiyadagi dasturlarda tinglovchilarning ishtiroki ta’minlandi. Shu yo‘nalishlarda jami 23 tinglovchi ishtirok etdi. Bundan tashqari, KOICA va NHI bilan hamkorlikda Koreya Respublikasida 15 tinglovchining malaka oshirishi tashkil etildi.

Ushbu ko‘rsatkichlar xalqaro hamkorlikning geografik qamrovi kengayib borayotganini ko‘rsatadi. Yevropa va Osiyo mamlakatlaridagi muassasalar bilan yo‘lga qo‘yilgan aloqalar tinglovchilarga davlat boshqaruvining turli modellari, kadrlar siyosati va zamonaviy ta’lim yondashuvlarini o‘rganish imkonini bermoqda.

Xalqaro hamkorlikning yana bir muhim yo‘nalishi davlat moliyasini samarali boshqarish va davlat siyosati sohasidagi zamonaviy yondashuvlarni o‘rganishdan iborat.

Davlat moliyasini boshqarish, budjet mablag‘laridan oqilona foydalanish va davlat qarorlarining iqtisodiy asoslanganligini ta’minlash boshqaruv samaradorligining muhim shartlaridir. Shu nuqtai nazardan, Yevropa tajribasini o‘rganish davlat resurslaridan foydalanish sifatini oshirish va milliy sharoitga mos boshqaruv yechimlarini ishlab chiqish uchun foydali imkoniyat yaratadi.

Eng muhim mezon

Xorijiy stajirovka va malaka oshirish dasturlari samaradorligini faqat ularda ishtirok etgan tinglovchilar soni yoki qamrab olingan mamlakatlar geografiyasi bilan baholab bo‘lmaydi. Asosiy natija o‘zlashtirilgan bilimning ish joyida qanday qo‘llanilishi, boshqaruv jarayonlariga nima o‘zgarish olib kirishi va jamoat manfaatlariga qay darajada xizmat qilishidir.

Shu nuqtai nazardan, xalqaro stajirovkalarning keyingi bosqichida bir qator vazifalarga alohida e’tibor qaratish maqsadga muvofiq.

Birinchidan, har bir dastur uchun aniq o‘quv maqsadlari va kutilgan natijalarni belgilash zarur. Bu tinglovchilarning xorijga borishdan oldingi ehtiyojlarini aniqlash, dastur mazmunini maqsadli shakllantirish va uning natijalarini xolis baholash imkonini beradi.

Ikkinchidan, stajirovkadan qaytgan ishtirokchilar o‘zlashtirgan tajribasini hamkasblari bilan muntazam o‘rtoqlashishi, amaliy seminarlar va taqdimotlar o‘tkazishi muhim. Bu orqali xorijda olingan bilimlar alohida ishtirokchi doirasida qolib ketmay, butun tashkilotning intellektual salohiyatini oshirishga xizmat qiladi.

Uchinchidan, xorijiy tajriba asosida aniq amaliy loyihalarni ishlab chiqish va ularning joriy etilishini kuzatib borish lozim. Boshqaruv jarayonlarini raqamlashtirish, davlat xizmatlari sifatini oshirish, byudjet mablag‘laridan samarali foydalanish yoki hududiy boshqaruvni takomillashtirish kabi yo‘nalishlardagi amaliy tashabbuslar stajirovkalarning real samarasini ko‘rsatishi mumkin.

To‘rtinchidan, xalqaro hamkorlikni bir martalik tashriflar bilan cheklab qo‘ymasdan, qo‘shma o‘quv dasturlari, ilmiy tadqiqotlar, ekspertlar almashinuvi va uzoq muddatli institutsional sheriklik asosida rivojlantirish muhim.

Akademiyaning 2025-2026-yillardagi xorijiy stajirovka va malaka oshirish dasturlari davlat boshqaruvi kadrlarini rivojlantirishda xalqaro hamkorlikning ahamiyati ortib borayotganini ko‘rsatadi. Koreya Respublikasi, Germaniya, Fransiya, Ozarbayjon, Italiya, Xitoy, Qirg‘iziston, Malayziya, Chexiya, Polsha, Turkiya va Ispaniya bilan bog‘liq dasturlar turli boshqaruv modellari, ta’lim yondashuvlari va zamonaviy texnologiyalarni o‘rganish uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda.

Ayniqsa, sun’iy intellekt, raqamli transformatsiya, davlat moliyasi va innovatsion boshqaruv kabi yo‘nalishlarning xalqaro o‘quv dasturlarida alohida o‘rin egallayotgani kelgusida davlat xizmatchilariga qo‘yiladigan yangi talablar bilan hamohangdir.

Biroq har qanday xalqaro tajribaning haqiqiy qiymati uni milliy sharoitga moslashtirish va amaliyotga tatbiq etish orqali namoyon bo‘ladi. Shu bois, akademiya oldidagi muhim vazifa xorijiy hamkorlik qamrovini kengaytirish bilan birga uning natijadorligini tizimli baholash, o‘zlashtirilgan bilimlarni boshqaruv amaliyotiga joriy etish va kadrlar salohiyatini uzluksiz rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirishdir. Davlatning ertangi kuni bugun tayyorlanayotgan kadrlarning bilimi, tafakkuri va mas’uliyatida namoyon bo‘ladi.

Zero, mamlakat taraqqiyotiga xizmat qiladigan samarali boshqaruv, avvalo, bilimli, tashabbuskor, strategik fikrlaydigan va yangilikka ochiq rahbar kadrlarga tayanadi. Xalqaro tajribani milliy manfaatlar bilan uyg‘unlashtirish esa ana shunday kadrlarni tayyorlashning muhim shartlaridan biridir.

“IKKINCHI IMKON”: TAQDIRLARNI O‘ZGARTIRAYOTGAN UMUMMILLIY LOYIHA

Ezgu tashabbus

Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan joriy qilingan “Ikkinchi imkon” loyihasi ilk natijalarini bera boshladi. Ya’ni loyihaga jalb etilgan mahkumlarning ingliz tilini o‘zlashtirish darajasi o‘rtacha 89 foizni tashkil etmoqda. Shuningdek, tinglovchilarning 80 foizi “Kompyuter savodxonligi” kursini muvaffaqiyatli o‘zlashtirdi.

Ilk natijalar

Bugun respublikamizning 11 ta jazoni ijro etish muassasasida 18-30 yosh oralig‘idagi 300 dan ortiq mahkum ingliz tili va zamonaviy kasb-hunarlarni o‘rganmoqda. Qisqa muddat — besh oy davomida qo‘lga kiritilgan dastlabki natijalarning o‘ziyoq loyihaning naqadar samarali ekanini ko‘rsatmoqda.

Loyiha doirasidagi mashg‘ulotlar 2026-yil 1-iyundan Toshkent, Navoiy va Qashqadaryo viloyatlarida boshlangandi. Test sinovlari va og‘zaki suhbat orqali saralab olingan 311 mahkum o‘tgan davr mobaynida xorijiy til hamda kompyuter savodxonligi kurslari bo‘yicha intensiv tahsil oldi.

Ingliz tilining “A1” darajasi va “Kompyuter savodxonligi” kurslari bo‘yicha yakuniy nazorat o‘tkazildi. Natijalar tinglovchilarning 88,6 foizi ingliz tili, 79,5 foizi kompyuter savodxonligi bo‘yicha boshlang‘ich bilimlarni muvaffaqiyatli o‘zlashtirganini ko‘rsatmoqda.

Eng yuqori natijalar Qashqadaryo va Navoiy viloyatlarida qayd etildi: Jumladan, Qashqadaryoda ingliz tilining “A1” darajasini o‘zlashtirish 96,6 foizni, kompyuter savodxonligi bo‘yicha esa 98,3 foizni tashkil etdi. Navoiyda bu ko‘rsatkich mos ravishda 98,9 hamda 87,5 foizga teng bo‘ldi.

Mahkumlarning bilim darajasi ularga dars bergan mutaxassislar tomonidan aniqlanmaydi. Xolislik va shaffoflikni ta’minlash maqsadida jarayonga alohida ekspertlar jalb qilinib, nazorat sinovlari maxsus platformada har oyda o‘tkazib kelinmoqda. Jazoni ijro etish muassasalari orasida 100 foizli natijaga erishilganlari ham bor. Xususan, Qiziltepadagi 5- hamda Qarshidagi 3-koloniyalarda ikkala kurs bo‘yicha o‘zlashtirish 100 foizni tashkil etdi. Bu ko‘rsatkichlar tinglovchilarning ta’limga naqadar jiddiy yondashayotganini hamda ushbu loyihani kelajagini o‘zgartirish yo‘lidagi chinakam imkoniyat sifatida qabul qilayotganini ko‘rsatadi.



Prezidentimiz tashabbusi bilan boshlangan xayrli ish

Davlatimiz rahbari 2026-yil 24-fevral kuni Ko‘ksaroy qarorgohida yoshlar bilan o‘tkazilgan muloqotda jazo muddatini o‘tayotgan yoshlarning jamiyatga tez moslashishi muhimligini ta’kidlab, “Ikkinchi imkon” umummilliy loyihasi boshlanishini e’lon qilgan edi. Shu yilning 27-mart kuni esa bu borada Prezidentimiz qarori qabul qilindi. Qaror ikki maqsadga: ozodlikka chiqqan inson ishsiz va tayanchsiz qolmasligi, shuningdek, takroran jinoyat sodir etilishining oldi olinishiga qaratilgan. Bu loyiha birgina xato sabab inson kelajagiga nuqta qo‘yilmasligi kerak, degan ezgu g‘oyaga asoslangan. Chunki haqiqiy adolat faqat jazolashda emas, balki insonga to‘g‘ri yo‘lga qaytishi uchun imkoniyat berishda namoyon bo‘ladi.

“Ikkinchi imkon” loyihasi dastlab pilot tarzida uchta hududda boshlangan bo‘lsa, 2027-yildan respublikamizdagi barcha jazoni ijro etish muassasalarini to‘liq qamrab oladi. Eng muhimi, davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanadigan, adashib jinoyat ko‘chasiga kirgan insonlarni jamiyatga to‘laqonli qaytarishga, bu orqali ularning kelajagini yaxshilashga qaratilgan bunday kompleks reabilitatsiya tizimi nafaqat yurtimizda, balki butun Markaziy Osiyo mintaqasida mutlaqo yagona tashabbusdir.

Aslida, ozodlikdan mahrum etilgan shaxslarga AT va raqamli sohalarni o‘rgatish xalqaro tajribada juda kam uchraydi.



2014-yilda Kaliforniyadagi San-Kventin qamoqxonasida boshlangan “The Last Mile / Code.7370” loyihasi mahkumlarga dasturlashni o‘rgatish bo‘yicha dunyodagi eng mashhur nodavlat dastur hisoblanadi. AQSH tajribasi asosida Buyuk Britaniyada “Code4000” loyihasi yuzaga kelgan hamda Avstraliya, Fransiya, Chili va Yangi Zelandiya kabi davlatlarda ham ayrim muassasalarda sinov tariqasida qo‘llanilgan.

Xorijda bu kabi dasturlar odatda nodavlat tashkilotlar tomonidan cheklangan tarzda o‘tkazilsa, O‘zbekistonda “Ikkinchi imkon” loyihasi Prezidentimiz qarori asosida milliy darajada, respublikadagi jazoni ijro etish muassasalarini to‘liq qamrab olgan holda o‘tkazilmoqda. Loyihada qatnashib, bilim va ko‘nikmalarni muvaffaqiyatli o‘zlashtirgan bitiruvchilarni kafolatlangan ish bilan ta’minlash mamlakatimizda yuritilayotgan kuchli ijtimoiy siyosatning yana bir yorqin ifodasidir. Ayni shu jihatlariga ko‘ra, “Ikkinchi imkon” loyihasini bemalol dunyo miqyosida o‘xshashi yo‘q deb aytish mumkin.

Eng muhim ma’lumotlar

“Ikkinchi imkon” loyihasi 18-30 yoshdagi mahkumlarga mo‘ljallangan bo‘lib, unga o‘ta og‘ir jinoyatlarni sodir etmagan, ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan jinoyatlarni sodir etgan, ilk bor qamalgan mahkumlar jalb qilinadi. Axborot texnologiyalaridan foydalangan holda jinoyat sodir etgan shaxslarning loyihada ishtirok etishiga qat’iy ruxsat berilmaydi.

O‘quv mashg‘ulotlari 8-12 oylik intensiv dasturlar asosida tashkil etilib, kurslarni muvaffaqiyatli tamomlagan tinglovchilarga egallagan kasbi bo‘yicha respublika miqyosida tan olinadigan elektron shakldagi tegishli malakaviy sertifikatlar topshiriladi.

Dastur doirasida mahkumlarga 12 oy davomida ingliz tili (A1-B2) puxta o‘rgatiladi. Bundan tashqari, o‘quv rejasidan “Kompyuter savodxonligi”, “Kompyuter servisi va tarmoq texnologiyalari”, “Soft skills”, ma’lumotlar tahlilchisi, marketpleyslarda tadbirkorlik qilish ko‘nikmasini shakllantirish bo‘yicha kurslar o‘rin olgan.

Davlat va xususiy sektor hamkorligi

“Ikkinchi imkon” loyihasi to‘liq “UNICON-SOFT” MCHJ mablag‘lari hisobidan moliyalashtirilib, davlat budjetidan mablag‘ talab etilmaydi. O‘qituvchilar ish haqi, o‘quv xonalarini jihozlash (kompyuter jamlanmasi, elektron doskalar, o‘quv mebeli va hokazo) va metodik adabiyotlar bilan ta’minlashdan tortib, mahkumlarga kerakli oddiy daftar va ruchkagacha — barcha tashkiliy va moddiy xarajatlarni kompaniya o‘z zimmasiga olgan.

2026-yilning 29-avgust kuni IIV Jazoni ijro etish departamenti, “UNICON-SOFT” MCHJ, Vatan universiteti, “MAAB Innovation” va “SZS Trucking” kompaniyasi o‘rtasida imzolangan memorandumlar doirasida Vatan universiteti har yili loyihaning eng muvaffaqiyatli bitiruvchisini 100 foizli grant asosida 4 yil bepul o‘qitish tashabbusini ilgari surdi.

“Microsoft” kompaniyasining O‘zbekistondagi birinchi rasmiy hamkori bo‘lgan “MAAB Innovation” kompaniyasi kompyuter savodxonligi va ingliz tilini yaxshi o‘zlashtirganlar uchun ma’lumotlar tahlili bo‘yicha maxsus dastur bo‘yicha bepul o‘qitish istagini bildirdi. “SZS Trucking” kompaniyasi esa har yili ingliz tilini yaxshi o‘zlashtirgan bitiruvchilarni qisqa kurslarda o‘qitib, o‘ziga ishga qabul qilish taklifi bilan chiqdi.

Bularning barchasi “Ikkinchi imkon” umummilliy reablitatsiya loyihasi amalda har bir mahkumning kelajagini yaxshi tomonga o‘zgartirishga qaratilganini ko‘rsatadi.

Eng muhimi, jazoni o‘tab ozodlikka chiqqan yigit-qizlar endi ko‘chada qolmaydi, ish izlab sarson bo‘lmaydi — ular loyiha doirasida egallagan zamonaviy bilim va kasblari yordamida daromadli kasb egasiga aylanishadi va munosib hayot kechirish imkoniga ega bo‘ladi. Bu esa ularning jamiyatga moslashishiga, takroriy jinoyatlar kamayishiga xizmat qiladi.

Dilyor G‘ANIYEV,
“Ikkinchi imkon” loyihasi menejeri

Bolalarni himoya qilish haqida gap ketganda, ko‘pincha taqiqlar va jazolarni tilga olamiz. Albatta, bular zarur. Ammo bolaga nisbatan shafqatsizlikka qarshi kurashish faqat jazo choralari bilan cheklanib qolmasligi kerak. Jamiyatda mehr-oqibat va mas’uliyat madaniyatini yuksaltirish zarur.

YANGI O‘ZBEKISTON
www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz.uz_news



BOLALARIMIZ – YARATGANNING OMONATI

Hayotiy og‘riqlar sabog‘i, bugungi kun dardlari va yangi qonun muhofazasi

Mulohaza

Ko‘pincha bolalikni inson umrining bahoriga qiyoslaymiz. Bu faslda tashvish yo‘q, g‘am yo‘q, faqat shirin orzular va jarangdor kulgilar bor deb o‘ylaymiz. Uning har bir kunini turfa o‘yinlar bilan uyg‘unlikda tasavvur qilamiz. Ammo bu qiyosimiz hayot haqiqatlariga har doim ham mos kelavermaydi. Ayrim xonadonlarda ulg‘ayayotgan bolakaylarning chehrasiga tabassum begona bo‘ladi. Ba’zilari maktabdan uyga qaytishni istamaydi, ayrimlari esa kattalarning qadam tovushidan cho‘chiydi. Ular ko‘z yosh to‘kmasligi, hatto yon-atrofdagilar nazarida boshqa barcha bolalar qatori ko‘rinishi mumkin. Lekin aksariyat hollarda bu tashqi qiyofa aldamchi bo‘ladi.



Munavvara USMONOVA,
O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi

Hayot yo‘llarimda ko‘rganlarim va kuzatganlarim shunday xulosa chiqarishga izn beradi. Xotiramda o‘chmas iz qoldirgan hodisalarni eslaganimda, hamisha bir fikrda to‘xtayman: bolani asrash faqat ota-onaning emas, butun jamiyatning insoniy va huquqiy burchidir.

Yaqinda qabul qilingan “Bolalarni zo‘ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish tizimi takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi qonun ana shu mas’uliyatning hayotiy ehtiyoj ekanini anglatish hamda uni yanada kuchaytirishga qaratilgan eng kuchli muhofazadir. Unda bolalarga nisbatan sodir etilgan jinoyatlar uchun javobgarlikni kuchaytirish, ularni himoya qilishda mas’ul idoralar va ta’lim tashkilotlari xodimlari vazifalarini aniq belgilab berish, jabrlangan bolalarning huquqiy himoyasini ta’minlashga doir muhim normalar nazarda tutilgan. Ammo qonunning kuchi faqat raqamlar, jarimalar yoki jazo muddatlari bilan o‘lchanmaydi. Uning haqiqiy qudrati bolalar taqdirida namoyon bo‘ladi. Bola xatar bilan yuzma-yuz kelganida, qonun xuddi yaroq tutgan dovyurak askar kabi himoyaga shay tursa, bu uning amalda ishlayotganidan dalolatdir.

Bolaning og‘riqli tovushi quloqqa chalinganda, bu nola yetgan joydagi odamlar hushyor tortsa, demak, qonun talablari omma ongiga chuqur singib bormoqda. Har bir bandi ana shu insoniy vazifalar va vijdoniy burchga qaratilgan mazkur qonunni takror-takror nazardan o‘tkazar ekanman, xotiram ko‘zgusida kechagi va bugungi kunning alamli voqealari, kuyukli manzaralari jonlana boshlaydi.

Akademik litseyda direktorning ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha o‘rinbosari bo‘lib ishlagan paytim edi. Birinchi kursda o‘qiydigan, olis hududdan kelgan bir o‘quvchi ota-onasi yuborgan pulni olish uchun “Otchopar” bozoriga borib kelishga ruxsat so‘radi. Qishloqdan endigina chiqib kelgan o‘smir bo‘lgani uchun uni yolg‘iz yuborishni istamadim. Guruh rahbaridan o‘quvchiga hamroh bo‘lishni so‘radim, qo‘liga yo‘l haqi ham tutqazdim. Ammo o‘quvchi ustozini kutmay, o‘zi yo‘lga tushgan. Kun kech bo‘ldi hamki, undan darak bo‘lmadi. Bolani qidirishga tushdik. O‘z imkoniyatimiz bilan murod hosil bo‘lmagach, ichki ishlar idoralariga murojaat qildik. Nihoyat o‘quvchini bir tashlandiq joydan hushsiz holda topishdi. Shukrki, u tirik edi.

Keyinchalik ma’lum bo‘lishicha, bola uyidan kelgan pulni olayotganini ko‘rib qolgan bir kimsa uni o‘z mashinasida metrogacha olib borishni va’da qilgan. Yo‘lda esa tarkibida hushdan ketkazuvchi modda bo‘lgan ro‘molchadan foydalanib, bolani behush qilgan va bor pulini olib, o‘zini dalaga tashlab ketgan. Bu voqeadan so‘ng tong sahar ko‘zguga qarasam, bir tutam sochim oqarib qolibdi. Ertalabki yig‘ilishda o‘quvchilarni bo‘lib o‘tgan voqeadan xabardor qilib, ularni hushyorlikka chorlar ekanman: “Sizlar bizga Allohning omonatisiz...”, deganim hali ham yodimda.

Mazkur qonunda jismoniy va jinsiy zo‘ravonlik bilan bir qatorda ruhiy zo‘ravonlik, g‘amxo‘rlik ko‘rsatmaslik, ekspluatatsiya qilish, ta’qib etish hamda bulling ham bolaga nisbatan zo‘ravonlik shakllari sifatida belgilangan. Demak, bolani himoya qilish deganda faqat kimdir uning murg‘ak tanasiga yetkazgan jarohatga malham qo‘yish bilan cheklanmaymiz. Qo‘rquv tufayli ruhiyati zaiflashishi, qay bir sabablarga ko‘ra kamsitilishi, mehr panohi bo‘lmagan hollarda e’tiborsiz qoldirilishi, o‘qish va rivojlanish imkoniyatidan mahrum etilishi ham jamoatchilik e’tiborida bo‘lishi shart.

Nima uchun biz ushbu bitiklarimizda sharhlayotgan mazkur qonunning muhofaza qamrovi bu qadar keng? Bu bejiz emas, albatta. Chunki ba’zan bolaga nisbatan qilingan shafqatsizlikka u qadar e’tibor bermaymiz. “Hali yosh, unutib yuboradi”, “Boshida ota-onasi bor, o‘zlari hal qiladi”, deymiz. Ammo bolalikdagi ba’zi og‘riqlar unutilmaydi. Ular goh bitmas jarohat izi bo‘lib ozor bersa, gohida hayotdan to‘g‘ri xulosa chiqarishga o‘rgatadi.

O‘smir yoshdagi rangpargina bir bola ko‘p qavatli uylar oralab sut sotib yurardi. Qish kunlarining birida sovuqdan yuz-qo‘llari qizarib ketgan shu bolakayni savolga tutdim. Onasi betob, otasi mavsumiy ishda bo‘lgani bois, buvisi uni sut sotishga chiqarar ekan.

“Kennoyi, qolgan sutni arzon beraman, olib qoling. O‘tgan kuni ikkita baklashkadagisi sotilmagan edi, buvim meni urib, ko‘chaga haydab yubordi. O‘qishimdan qolib ketdim, maktabga borishim kerak”, dedi u yig‘lamsirab. Men o‘sha iztirobli lahzada faqat bolaning ko‘zidan oqqan yoshni emas, uning yelkasiga ortilgan ro‘zg‘or yukini, qo‘llaridagi sut idishlardan ming karra zalvorliroq qalb og‘rig‘ini o‘yladim. Uning yoshidagi bola do‘stlari bilan o‘ynashga shoshiladi, dars zavqini suradi, kitob mutolaasini o‘ylaydi, kelajagi haqida orzu qiladi. Nega u qishning ayozli kunida kattalar tashvishini yelkalab yurishi kerak? Albatta, hayotda quvonch va tashvishlar yonma-yon yashaydi. Oilada kasallik bo‘lishi, otaning ishi yurishmay qolishi, ona esa mehnat layoqatini cheklaydigan dardga chalinishi mumkin. Ammo iqtisodiy qiyinchilik bolaning ta’limdan uzilishi yoki qadr-qimmati qurbon qilinishi evaziga bartaraf etilmasligi lozim. Oilaga ijtimoiy ko‘mak, tibbiy yordam, mahalla va tegishli tashkilotlar e’tibori zarur bo‘lgan joyda mutasaddilar o‘z burchini bajarishga shoshilishi darkor. Qonunning mohiyati va uning muhofaza qudratini teranroq anglash zarurati mana shunday hayotiy voqealarda yana ham aniqroq namoyon bo‘ladi.

Kechagi kun voqealarini eslar ekanman, xayolim beixtiyor bugungi kunga, atrofimizda yuz berayotgan achchiq haqiqatlarga ko‘chadi. Bugun ijtimoiy tarmoqlarni yoki yangiliklar tasmasini ochsangiz, yurakni o‘rtab yuboradigan, aqlni shoshiradigan xabarlarga duch kelasiz. Bu shunchaki virtual shovqin emas, balki bugungi jamiyatimizdagi, shundoqqina yon-atrofimizdagi murg‘ak jonlarning alamli nolasidir.

Savol tug‘iladi: nega bugun begunoh bolalar kattalarning alami, nafrati va qasosi qurboniga aylanib qolmoqda? Eriga achchiq qilib, o‘z jigarbandlarini ko‘p qavatli binoning yuqori qavatidan tashlab yuborgan ayolning qalbida qachon, nima sababdan onalikning tengsiz muhabbati so‘nib ulgurdi ekan? Qaynonasiga yoki turmush o‘rtog‘iga bo‘lgan g‘azabini jilovlay olmay, murg‘ak go‘dakning og‘iz-burnini qonga bo‘yab, kaltaklagan kelinga nisbatan: “Hayot uni shunday shafqatsizlikka olib keldi”, desak ham uni oqlay olamizmi, aslo! Ba’zi g‘azabini jilovlay olmagan kattalar nega o‘z alamini himoyasiz boladan olishi kerak? Bu shafqatsizlikka shafqatsizlik bilan javob qilish emasmi?

Yoki dilimizni yaralagan yana bir beparvolikni og‘riq bilan eslaymiz. Yozning jazirama issig‘ida mashina ichida unutilib, dim havoda nafasi siqilib, azoblanib nobud bo‘lgan murg‘ak go‘dakning o‘limida kim aybdor? Bu shunchaki “tasodif”mi yoki bolaning hayoti va sog‘lig‘iga bo‘lgan sovuqqonlikning eng mudhish ko‘rinishimi? Ta’lim va tarbiya maskanlari bo‘lmish bog‘chalarda, maktablarda bolalarga nisbatan qilinayotgan jismoniy yoki ruhiy zo‘ravonlik, murabbiy tomonidan tushirilayotgan tarsaki, tengqurlar o‘rtasidagi ayovsiz bulling va tahqirlar-chi?

Ijtimoiy tarmoqlarda bunday video va xabarlar tarqalganda, jamoatchilik bong uradi, minglab odamlar g‘azablanadi, nafrat yog‘diradi. Ammo bu holatdagi kechikkan shovqin-suron va vaqtinchalik muhokamalar sodir bo‘lgan fojianing oldini ololmaydi, majruh bo‘lgan murg‘ak ruhiyatini butlab, boy berilgan aziz jonni ortga qaytara olmaydi.

Aynan shuning uchun yangi qabul qilingan qonunda bolani tarbiyalash va unga g‘amxo‘rlik qilish majburiyatlarini bajarmaslik, bolalarga nisbatan zo‘ravonlik sodir etish, hayoti va sog‘lig‘ini xavf ostida qoldirish kabi huquqbuzarliklar uchun javobgarlik hamda jazo choralari keskin kuchaytirildi.

Mazkur qonunga muvofiq, zimmasiga bolani tarbiyalash va unga ta’lim berish majburiyati yuklatilgan ta’lim yoki tarbiya tashkiloti xodimi bolaga nisbatan zo‘ravonlik sodir etgani uchun javobgarlikka tortilsa, bu holat u bilan tuzilgan mehnat shartnomasini bekor qilish uchun qo‘shimcha va qat’iy asos hisoblanadi. Bu esa maktab va bog‘chalarimizda bolaning daxlsizligini ta’minlash, murabbiy hamda o‘qituvchilar mas’uliyatini oshirish yo‘lidagi juda muhim huquqiy tayanchdir.

Bolaning hayotiga eng ko‘p javobgar bo‘lgan insonlar, birinchi navbatda, ota-onasi va yaqinlaridir. Lekin ba’zan hayotdagi eng og‘ir jarohat aynan eng yaqin kishilar tomonidan yetkaziladi. Buni aytish oson emas. Chunki biz oilani muqaddas deb bilamiz, ota-ona mehrini tabiiy ne’mat sifatida qabul qilamiz. Ammo oila muqaddasligi xonadon ichkarisida ro‘y berayotgan noxush voqealarga, shafqatsizliklarga ko‘z yumish huquqini bermaydi. “Saodat” jurnaliga bir ayol yo‘llagan iztirobli maktubda bunday so‘zlar bor edi:

“Turmush o‘rtog‘imning kaltaklariga, tazyiqlariga chiday olmay, uch yoshli o‘g‘lim bilan ota uyimga qaytdim. Yillar davomida yig‘ib-terganimni otamning qo‘liga tutib: “Hovli chekkasiga bir xona imorat tiklab olaylik, qozon qaynatib, ro‘zg‘orimni o‘zim tebratay, ukamning oilasi ham kattalashib boryapti”, dedim. Ular bunga ko‘nmadi, “Ukangni ranjitasan”, deyishdi. Otam qazo qilgach, men uchun og‘ir kunlar boshlandi. Bir kuni ishda ekanimda yaqin qo‘shnimiz sim qoqib, uyimizda janjal bo‘layotganini, bolamning zorlanib yig‘lagani eshitilayotganini aytib qoldi. Jon holatda uyga yugurdim. Bir burchakda titrab-qaqshab yotgan bolamning oyoqlari kaltak zarbidan ko‘karib, qonab ketgandi. “Aravachada o‘tirgan go‘dagimni yiqitdi, o‘ynatmay o‘lgur. Boshi shikastlangan bo‘lsa, bezori bolangning og‘zidan qonini keltiraman. Tog‘asi bekorga savalagani yo‘q bu shumqadamni”, deya kelinoyim og‘ziga kelganini bo‘g‘zidan qaytarmasdi...”.

Ona bechora nima qilsin? O‘zini ham, farzandini ham himoya qilish uchun xorijga ketib, qora mehnat qilgan. O‘g‘lini o‘qitgan, oyoqqa turg‘izgan. Keyin Vatanga qaytib, ishlashni davom ettirgan. Bu ayolning matonatiga qoyil qolib, uning hayot kurashlarida g‘olib chiqqanini e’tirof etish bilan birga meni bir savol qiynaydi: nega ona o‘z farzandini o‘z yurtida, o‘z yaqinlari orasida himoya qila olmadi? Nega musofir yurtlarda sarson bo‘lishga, begonalar qo‘liga qarashga majbur bo‘ldi? Nega norasida bolaning bilmay qilgan xatosi kattalarning bu qadar shafqatsiz munosabatiga sabab bo‘lishi kerak edi?

Shu o‘rinda qonunning yana bir muhim jihati namoyon bo‘ladi bolaning himoyalanishga bo‘lgan huquqi faqat o‘z uyidagi kattalarning xohish-irodasiga bog‘liq emas. Agar uning xavfsizligiga tahdid tug‘ilsa, tegishli idoralar vaziyatga aralashishi, xavf darajasini baholashi va himoya choralarini ko‘rishi lozim. “Qarindosh-urug‘chilik”, “oilaviy masala”, “o‘zimiz hal qilamiz” kabi tushunchalar bola huquqidan ustun turmasligi kerak.



Bu haqda so‘z borganda, 17 yoshli bir qizning kechmishi yodimga tushadi. Hali maktab o‘quvchisi bo‘lgan paytida oilasi uni yaqin qarindoshining o‘g‘liga unashtirib qo‘yadi. Kattalar qiz taqdirini uning o‘zisiz hal qilmoqchi bo‘lishdi. Onasi bozorma-bozor kezib sep-sidirg‘a tayyorlar, otasi esa qizi bilan bu mavzuda gaplashishni o‘ziga munosib bilmasdi. Qizning xohishi, qo‘rquvi, kelajak haqidagi o‘ylari esa go‘yo hech kimga kerak emasdek edi.

Bu holatdan xabar topgach, mahalla faollari bilan birga ularning oilasiga bordik, suhbatlashdik. Ota-onasiga qizning o‘qish istagi kuchli ekanini, o‘z taqdirini o‘zi tanlashi kerakligini tushuntirdik. Urinishlarimiz bekor ketmadi, to‘y to‘xtatildi.

To‘g‘ri, har bir oilaviy kelishuvni yoki qarindoshlar o‘rtasidagi sovchilikni qonunbuzarlik deb bo‘lmaydi. Ammo voyaga yetmagan qizga bosim o‘tkazish, uning ta’lim olishga ishtiyoqini mensimaslik, qonun bilan belgilangan nikoh yoshi va boshqa talablarni chetlab o‘tishga urinish — juda jiddiy masala. Bola manfaatlari kattalar obro‘si, qarindoshlik kelishuvi yoki “odamlar nima deydi?” degan xavotirdan ustun bo‘lishi lozim.

Bolalar masalalari bo‘yicha komissiyalar qarorlarini bajarmaslik yoki ijrosiga to‘sqinlik qilish holatlari uchun javobgarlik belgilash orqali mas’uliyatni kuchaytirish ham mazkur qonunning o‘ziga xos jihatlaridan biri hisoblanadi. Xususan, yangi qonunda bolani tarbiyalash va unga g‘amxo‘rlik qilish majburiyatlarini bajarmaslik, komissiya qarorlarini ijro etmaslik hamda bolalarga nisbatan zo‘ravonlik sodir etish uchun ma’muriy javobgarlik va jarimalar (ayrim hollarda esa ma’muriy qamoq jazosi) belgilangan.

Qonunning yana bir muhim kafolati zo‘ravonlikdan jabrlangan yoki unga guvoh bo‘lgan bolalarga davlat hisobidan yuridik yordam ko‘rsatilishidir. Jinsiy zo‘ravonlikka oid ishlarda voyaga yetmagan jabrlanuvchi uchun davlat hisobidan advokat ishtiroki ta’minlanadi. Bu kafolat zamirida katta adolat bor. Chunki jabr ko‘rgan bola har doim ham o‘z huquqini mustaqil himoya qilishga qodir emas. Shunday vaziyatda unga huquqiy yordam ko‘rsatilishi shunchaki imtiyoz emas, balki o‘zini yolg‘iz his qilmasligi uchun zarur tayanchdir. Bunday ishlarga yondashuvda bolaning sha’ni va ruhiy holati hamisha diqqat markazida turishi kerak. Undan voqeani qayta-qayta so‘rab, har safar o‘sha og‘riqli onlarni qayta boshdan kechirishga majbur qilish to‘g‘ri bo‘lmaydi. Himoya degani faqat aybdorni topish emas, balki jabrlangan bolaning qadr-qimmatini asrash, ruhan mayib bo‘lib qolmasligini ta’minlash hamdir.

Yangi qonun o‘n to‘rt yoshga to‘lmagan shaxsga nisbatan sodir etilgan ayrim og‘ir jinsiy jinoyatlar uchun jazoni ham keskin kuchaytirdi: nomusga tegish va jinsiy tazyiq o‘tkazish yo‘li bilan zo‘ravonlik qilgan shaxslarga 15 yildan 25 yilgacha yoki umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosi belgilandi. Jazo bu qadar qat’iyligi bolaning jismoniy daxlsizligi va jinsiy erkinligiga bo‘lgan tajovuzni jamiyat mutlaqo qabul qilmasligini aniq ko‘rsatadi.

Bolalarni himoya qilish haqida gap ketganda, ko‘pincha taqiqlar va jazolarni tilga olamiz. Albatta, bular zarur. Ammo bolaga nisbatan shafqatsizlikka qarshi kurashish faqat jazo choralari bilan cheklanib qolmasligi kerak. Jamiyatda mehr-oqibat va mas’uliyat madaniyatini yuksaltirish zarur.

Bu haqda o‘ylasam, otamning bir ezgu ishi yodimga tushadi. Hovlimizda katta hovuz bo‘lardi. Uch yoshli akam o‘sha hovuzga tushib ketib, nobud bo‘lgan ekan. Onamning ko‘zlarida doim o‘sha hasratli kunlarning yoshi halqalanardi.

Bir kuni otam oilamizning yolg‘iz sut berib turgan sigirini sotish uchun bozorga olib ketdi. Onamning “Bolalarning rizqi qiyilmaydimi?” degan sovuq so‘ziga otam:

— Bu sigir faqat mening oilamga kor keladi. Agar uni sotib, o‘ylagan ishimni amalga oshirsam, butun el-yurtning kuniga yaraydi, — deb yo‘lida davom etdi.

Otam molning puliga eski “Pobeda” avtomobilini sotib olib, ta’mirlatibdi va uyga telefon o‘rnatib, atrofdagi sakkiz ko‘chaga xabar beradi. O‘sha paytda shahar markaziga boradigan boshqa mashina yo‘q edi. Dadam tunda kimdir chaqirib kelsa, kechikib qolmay deb etigini ham yechmay omonatgina yotib-turardi. U o‘n ikki yil davomida elga shunday xolis xizmat qildi.

Ulg‘ayib: “Dada, tuni bilan kasal tashib yurganingizga birov rahmat dedimi?” deganimda, bunday javob bergandi:

— Qizim, men buni odamlarning emas, Allohning rizoligi uchun qildim. U davrda xalq nochor, onalar va go‘daklar o‘limi ko‘p edi. Ko‘magim bilan qanchadan qancha ona va bolaning hayoti saqlab qolindi. Meni shu ishlarga sababchi qilgan Egamga qulluq. Qani edi, mendan oldin ham kimdir “Tez yordam” bilan shifoxonaga vaqtida yetkazganida, munchoqdek o‘g‘lim yerga ko‘milmagan bo‘lardi...

Otam o‘z dardini boshqalarning najotiga aylantirdi. U qonun talab qilgani uchun emas, qalbi buyurgani uchun yordam berdi. Lekin hamma narsani faqat odamlar vijdoniga tashlab qo‘yib bo‘lmaydi. Bolalarni himoya qilish butun tizimning, davlat va jamiyatning yagona vazifasidir.

Marhamat tumanida ishlagan yillarimda nogironligi bo‘lgan uch o‘g‘ilni yolg‘iz tarbiyalagan matonatli bir onani uchratgandim. Bolalarini maxsus muassasaga joylashtirishni taklif qilishganida “Bolalarim — mening hayotim, ularni olib ketsangiz, kim uchun yashayman?” deb rozi bo‘lmagan. Biz bu oilaga tibbiy va ijtimoiy yordam ko‘rsatdik, o‘g‘illaridan biri hunarli bo‘ldi. Voyaga yetgan o‘g‘lining qo‘lidan ish kelganini ko‘rgan onaizorning quvonchi hamon ko‘z oldimda.

Nogironligi bo‘lgan bola faqat yordam oluvchi emas, u ham o‘rganishi, mehnat qilishi va jamiyatda o‘z o‘rniga ega bo‘lishi mumkin. Vazifamiz ularning imkoniyatlarini ko‘ra bilish va insoniy qadrini faqat tashxis bilan o‘lchamaslikdir.

Bola — ota-onaning mulki emas. U kattalar o‘z alami va nafratini sochadigan nishon emas. Uning o‘z qalbi, o‘z huquqi va orzu-maqsadlari bor. Bolalar bizga Allohning omonatidir. Bolalik poydevorining ustunlari oila mehri, ta’lim, ijtimoiy himoya va qonun ustuvorligidir. Ulardan birortasi zaiflashsa, bolaning ertangi kuniga soya tushadi. Bolani himoya qilish butun bir avlodning, millatning kelajagini asrash demakdir. O‘z vaqtida, zaruriy fursatlarda qabul qilingan qonun esa o‘sha beg‘ubor bolalikning qudratli muhofazasi sifatida millatimiz tarixida qoladi.

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetalari tahririyati” DM

MUASSIS:
O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:
Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “SHARQ” NMAK mas’ul.
Bosmaxona telefoni: (71) 233-11-07.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro‘yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. **Buyurtma** G-1146.
29189 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. **Qog‘oz bichimi** A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

Navbatchi muharrir: Sanjar Eshmurodov
Musahhih: Sherzod Mahmudov
Dizayner: Zafar Ro‘ziyev

Manzilimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko‘chasi, 85-uy

Qabulxona: (71) 233-56-33
E’lonlar bo‘limi: (71) 233-70-98

E-mail: info@yuz.uz
Veb-sayt: www.yuz.uz: (71) 233-47-05

Devonxona va ishonch telefoni:
(71) 233-56-60

“SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko‘chasi, 41-uy.